

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

YAPON FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Yapon va o‘zbek tillarida qush timsoli”

Bajardi: “Yapon filologiyasi” ta’Kosimova
lim yo‘nalishi bitiruvchi talabasi Kosimova
Gulnoraxon Baxtiyorjon qizi

Ilmiy rahbar: Turkiy tillar kafedrasida
dots.v.b. f.f.n Sodikova Shirin

Ilmiy konsultant: Yapon filologiyasi
kafedrasining katta o‘qituvchisi (PhD)
Xikmatullayev Jasur _____

TOSHKENT – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TILSHUNOSLIKDA PRETSEDENT MATNLARDA TIMSOL TUSHUNCHASI	8
1.1. Yapon va o‘zbek tillarida timsol tushunchasi.....	8
1.2 Yapon va o‘zbek mental olamida “qush” tushunchasining tasavvur ko‘lami.....	10
1.3.Yapon va o‘zbek tilida qushlarning turlari bilan bog‘liq tasavvurlar	14
II BOB. YAPON VA O‘ZBEK MAQOLLARIDAGI QUSHLAR TIMSOLINING TAHLILI	22
2.1. Yapon pretsedent matnlarida qushlar timsoli tahlili.....	22
2.2.O‘zbek pretsedent matnlarida qushlar timsoli tahlili	37
2.3. Yapon va o‘zbek pretsedent matnlarida qushlar timsolining farqli va o‘xshash jihatlari.....	48
XULOSA	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	57

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarimiz tiklanishi bilan hukumatimiz xorijiy tillarni o‘rganishga keng yo‘l ochib berdi. Endilikda yurtimizda g‘arb tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o‘rganishga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Shu boisdan ham yapon tilini bilish, unda ilmiy tadqiqot ishini olib borish mustaqil yurtimizning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Har bir sharq tili yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Prezidenti tomonidan alohida e‘tibor qaratilib, muhim vazifalardan biri sifatida shunday ta‘kidlanadi: “Jahon va mamlakatimiz tarixini, O‘zbekistonning madaniy va ma‘naviy merosini, o‘zbek tili va o‘rganilayotgan ma‘lum bir til tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish” e‘tiborga molik sanaladi ¹.

Pretsedent so‘zi lotinchadan (<lat. Praeeditens (praecedentis) ilgari bo‘lib o‘tgan) olingan bo‘lib, avval bo‘lib o‘tgan hamda ahamiyatga molik bo‘lgan hodisa, degan ma‘noni bildiradi ². “Pretsedent matn” deganda Yu. N. Karaulov “ma‘lum bir millat vakillariga xos bo‘lgan ularning aqliy va hissiy o‘ziga xosligini namoyon etadigan, o‘sha jamiyat vakillari uchun yaxshi tanish bo‘lgan matnlar” ni tushunadi³. Tilshunoslikka oid entsiklopedik lug‘atda keltirilishicha, pretsedent matn, deganda, ma‘lum bir madaniyat guruhi uchun qimmatli biror millatning til birliklariga bog‘liq holda ko‘p uchraydigan, millat uchun xarakterli bo‘lgan tushunchalar anglashiladi⁴. Demak, pretsedent matn bu ma‘lum bir jamiyat a‘zolarining xotirasidan joy olgan adabiy yoki hayotiy voqea va hodisalarning tilda aks ettirilishidir. Shu o‘rinda yurtboshimizning quyidagi so‘zlarini eslatib o‘tish o‘rinlidir: “Har qaysi xalq yoki millatning ma‘naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf – odat va an‘analari, hayotiy

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida : Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.:O‘zbekiston,1997 yil., –266 bet

² Словарь иностранных слов. – М.: Наука, 1964 г. 518 стр

³ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М., 1987 г. 218 стр

⁴ Николаева Т.М. Текст // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Сов.энциклопедия, 1990 г. 507 стр

qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi”⁵. Mazkur fikr ham tilshunoslikdagi pretsedentlarning aynan milliy – madaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nechog‘li ahamiyatli ekanligini belgilaydi.

Rus olimlaridan D.B. Gudkov pretsedentlarni quyidagilarga ajratadi: pretsedent matnlar, pretsedent ifoda (tsitata), pretsedent nom, pretsedent hodisa⁶. Tilimizda mavjud bo‘lgan va biz kundalik hayotimizda keng qo‘llanadigan frazeologik birliklar, maqollar va matallar, aforizmlar, kinoya va qochiriqlar, millat uchun qadrli bo‘lgan namoyondalarning nomlari, mashhur kishilardan iqtiboslar, kishilar nomlari, shior kabilar ham pretsedent matnlar hisoblanadi.

Ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma’naviy boyliklarimizning katta bir qismini xalq og‘zaki ijodi namunalari tashkil qiladi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning “Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazar ekanmiz, milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarurligini unutmashimiz kerak. Bu xazina asrlar davomida misqolab to‘plangan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish ”⁷,- degan fikri hayotiy xulosalar sifatida ilmiy tadqiqot ishlarida ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki badiiy ijodining qadimiy janrlaridan biri maqoldir. Maqollar ajdodlarning hayotiy tajribalari, ruhiy holati, tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirilganligi bilan ham ma’lum bir til tashuvchilarining ongiga, dunyoqarashiga yaqin hisoblanadi. Unda xalqning dunyoqarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati va axloqiy normasi o‘z ifodasini topadi. Ona tilimizning beqiyos boyliklari, cheksiz imkoniyatlari hamda uning hayotiy tajriba xulosalarini o‘zida asrab kelayotgan mumtoz badiiy manbadir. Maqol o‘zining ana shunday sifatlaridan kelib chiqqan holda pretsedent matn hisoblanadi.

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008 yil., 30 bet

⁶ Гудков Д.Б. Прецедентные феномены в текстах политического дискурса / Язык средств массовой информации: Учебное пособие для вузов / Под.ред. М.Н.Володиной. М.: Академический проект, 2008 г. 40 стр

⁷ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008 yil., 78 bet

Shu nuqtayi nazardan xalqimiz orasida mashhur boʻlgan maqollar matnidagi zoonimlar xususan qush nomlarining lingvistik xususiyatlarini turli aspektlarda oʻrganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining qadimiy janrlaridan biri, tilshunoslikda esa pretsedent matn hisoblanmish maqollarda qushlar timsoli, ularning semantik tahliliga bagʻishlanadi. Bunda oʻzbek va yapon xalq maqollarida uchraydigan zoonimik nomlarning shakllanishiga oid oʻziga xos jihatlar ochib beriladi.

Taʼkidlash lozimki, bugungi kunda garchi oʻzbek va yapon tillarining oʻziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan oʻrganib kelinayotgan boʻlsa-da, lekin har ikki xalq maqollarida uchraydigan zoonimik nomlar, xususan qushlar timsolining lisoniy tahlili hanuzgacha mukammal oʻrganilmagan.

Demak, oʻzbek va yapon xalq maqollaridagi zoonimik nomlar - qushlar timsolining oʻziga xos jihatlarini qiyosiy tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbek va yapon pretsedent matnlari – maqollarda qushlar timsoli mavzusi doirasida dunyoning turli davlatlarida bir qator tilshunos olimlar, xususan D.X.Bozorova ⁸, D.M. Yoʻldosheva ⁹, I. F.Ishberdin ¹⁰, Sh.Nosirov ¹¹ va boshqalar tomonidan nazariy – metodologik izlanishlar olib borilgan. Shu kunga qadar pretsedent matn doirasida qilingan ilmiy ishlar qatoriga kiradi.

Ilmiy ishning obykti va predmeti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining obykti boʻlib yapon va oʻzbek tillaridagi pretsedent matn – maqollar hisoblanadi.

⁸ Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). - Ташкент, 1978.;

⁹ Yoʻldosheva D. Oʻzbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida. – Samarqand, 2007

¹⁰ Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах //«Вопросы башкирского языкознания». – Уфа, 1973

¹¹ Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1986, №5. -Б.56-60

Yapon tilidagi maqollarda qush timsoli ushbu ishning predmeti hisoblanadi. Shu bilan birga mazkur ishda to‘plangan maqollarning lingvistik xususiyatlari tadqiq etildi.

Ilmiy ishning maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi ikki xalq – yapon va o‘zbek xalq maqollarida qushlarning timsoliy ifodalanishini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish, ya’ni yapon va o‘zbek mental olamida “qush” tushunchasining tasavvur ko‘lamini, ularning turlari bilan bog‘liq tasavvurlarni, farqli va o‘xshash belgilarini o‘rganishdan iborat. Ish jarayonida maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- mavzuga oid ilmiy-nazariy asarlar bilan tanishish ;
- yapon, o‘zbek tilidagi qush timsoli ishtirokidagi maqollarni to‘plash;
- maqollarning semantik jihatdan tahlilga tortish;
- har ikki xalq maqollarida qushlar timsolini ifodalanishi bilan bog‘liq farqli va o‘xshash xususiyatlarni aniqlash

Ishning ilmiy yangiligi Ilk bor bitiruv malakaviy ishi doirasida pretsedent matnlarda qushlar ifodalab kelgan timsollarning til nuqtai nazaridan o‘rganilishi, lingvistik tahlil qilinishi, qushlarning ma’lum turlari borasida shakllanib ulgurgan tasavvurlarning kelib chiqish omillari aniqlanishi, yapon va o‘zbek xalq maqollarining bevosita qiyoslanishi, monografik planda qiyosiy tadqiq qilinishi ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishi nafaqat yapon, balki umumiy tilshunoslik bo‘yicha ham yangi ilmiy izlanishlarning yozilishida, yapon va o‘zbek tili leksikologiyasini o‘rganishda, lug‘atchilik bilan shug‘ullanishda ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi hamda mazkur til o‘rganuvchilar uchun boy faktik material vazifasini o‘taydi.

Ishning umumiy tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi tadqiqotning umumiy tavsifi, kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Umumiy hajmi 58 bet.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA PRETSEDENT MATNLARDA TIMSOL TUSHUNCHASI

1.1. Yapon va o‘zbek tillarida timsol tushunchasi

Timsollar har bir xalqning madaniy fenomeni bo‘lib, har bir xalq o‘ziga xos timsollar haqidagi tushunchaga egadir. Timsollar muayyan bir ma’nolar yig‘indisini ochib berishga xizmat qiladi.

Timsol haqida gapirar ekanmiz, avvalo bu tushuncha olimlar tomonidan qanday tahlil qilinishiga to‘xtab o‘tishimiz lozim. Timsol nafaqat tilshunoslik, balki, adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya va boshqa bir qancha sohalarda ham o‘rganilgan. Tilshunoslik sohasida A.A. Potebning fikricha timsol bu: birinchidan, tushuncha, tildagi belgi; ikkinchidan, umumiy kategoriya, adabiyotdagi obrazli xususiyatni ifodalovchi; uchinchidan, ma’nosi lug‘atlarda berilgan madaniyat obyekti; to‘rtinchidan, ramz o‘zining asosiy ma’nosi boshqa sohalarda qo‘llash xususiyati mavjud belgi, deb ta’kidlaydi¹². Ilmiy adabiyotlar tahlilida timsol (simvol) talqinida turli yondashuvlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish mumkinligi ko‘rildi. Masalan, Yu. S.Stepanov tomonidan “timsol”, “ramz” tushunchasi turli tomonlama talqin qilinadi. Uningcha, timsol (simvol) - ilmiy meros, poetik tushuncha. U doimo poetik sistemada ma’noga ega va unda u haqiqiydir.

Timsollar (simvol) talqini diniy qarashlar bilan ham bog‘lanishi mumkin. Masalan, V.A.Maslova insoniyat o‘tmishdan yashagan timsollar dunyosi din orqali paydo bo‘lgan. Dindagi urf-odatlar timsolni rolini bajarib, shaxsning madaniy va siyosiy jihatdan mavqeini belgilaganligini aytib o‘tgan¹³.

Yuqorida keltirilgan timsollar va uning xususiyatlariga oid fikrlardan farqli Yu.M.Lotman simvolning obrazlilik va belgi xususiyatini birga ko‘rib chiqadi. U timsol masalasiga “gen syujeti” va “timsol– madaniyat tizimida” nuqtai nazaridan

¹² Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001г. 77 стр

¹³ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001г. 77 стр

qarab quyidagi xulosalarni beradi.

Birinchi, “timsol”, “ramz” semiotika fanida eng ko‘p ma’noli so‘z. Kontekstda mazmun va iboraning munosabati haqida gap ketganda timsolga e’tibor qaratiladi. Timsol milliy xarakterni ifodalaydi va mazmunni ochib berishda adekvat tarjima qiroli hisoblanadi. Timsol madaniy dunyodan obrazli dunyoga o‘tish ko‘prigi. Timsol mazmun va ifodada ham doimo o‘zida tugallangan mazmunni namoyon qiladi. Matnda o‘zining yagona ma’nosini beradi va semiotik kontekst oralig‘ida aniq ifoda chegarasini belgilaydi.

Ikkinchi, timsol madaniy yo‘nalish, ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi. Timsol madaniyat, butun bir timsol obrazlari insoniyat tarixi yoki hududiy chegara bilan bog‘liq. Yozuvchi individualligi nafaqat mavjud timsollarni berish bilan, balki arxaik obrazlarni ramziy xarakterini ochib berishda ham ko‘rinadi¹⁴.

Uchinchi, ko‘pgina misollardan timsol ijodiy jarayondagi holatligini aytish mumkin. Voqealar rivoji ramzda yashiringan bo‘ladi. Bu o‘z navbatida “syujet gen”i deb nomlanadi. Ammo bitta bir xil timsol har xil syujetlarda bo‘lishi va bu jarayon aniq xususiyatlarga ega emas. Timsol dunyosi tabiatan qarama-qarshidir¹⁵.

To‘rtinchi, timsolda har vaqt arxaik xususiyat mavjud. Har bir madaniyat matn orqali saqlanib qolinadi. Yopiq holda keng va muhim matn saqlash xususiyati timsolda mujassamlashgan¹⁶.

Beshinchi, badiiy g‘oya – milliy ochib beriluvchi mavzu, timsol - uni o‘rab olgan matndir. Timsol madaniyatni tashkil etadi¹⁷.

Oltinchi, timsol o‘zida matndagi bog‘liqlik qatorini saqlaydi. Bu holatda ma’noviy va tuzilishli alohidalik saqlanib qolinadi. Timsol semiotik bog‘lanadi va yangi matnga onsonlik bilan ko‘chadi. Bu uning asosiy xususiyati bilan bog‘liq¹⁸.

¹⁴ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000 г. 225 стр

¹⁵ O‘sha asar. 239 bet

¹⁶ O‘sha asar. 240 bet

¹⁷ O‘sha asar. 240 bet

¹⁸ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000 г. 241 стр

Yettinchidan, madaniyatning eng muhim mexanizmi timsol matnga ko‘chib, qayta ma’no kasb etadi. Faqatgina ushbu narsa asosiy timsollar va ularning madaniyatdagi doimiyliigi, milliy va hududiy chegarasini belgilab beradi. Timsol tabiati bu nuqtai nazardan qaralganda ikki xil. Bir tarafdin, timsol madaniyatga kirib o‘zining invariant xususiyatini ochib beradi. Ikkinchi tarafdin, timsol madaniyat konteksti bilan uzviy transformatsiya jarayonini amalga oshiradi.

Sakkizinchidan, muhimi timsol ma’nolari uning doimiy ifodalanishidan ko‘ra kengroq. Bunda timsol o‘ziga aloqador semiotik iboralar bilan ifoda etiladi.

To‘qqizinchidan, timsol madaniyat kontekstida har xil bo‘lishi mumkin, lekin u gen syujeti sifatida saqlanib qolinadi. Timsolda gen syujeti sifatida belgi va xususiyatlar o‘tkazib turish xossasi mavjudligi, boshqa madaniy belgilarda ham o‘xshash taraflar ko‘p bo‘lishi, ularni xarakterli belgilarni saqlab berish uchun imkon beradi.

O‘ninchidan, timsol – konsept. Timsol matn ko‘rinishida boshqa madaniy davr, boshqa madaniyat, umuman boshqa ma’nodagi matnda qayta jonlanishi uning ko‘p imkoniyatlari borligini ko‘rsatadi. Timsol matnda konsept maydonida namoyon bo‘ladi¹⁹.

Yuqorida timsolga berilgan xulosalardan timsolni til, matn, lingvopoetika jihatdan ko‘rilganligi va unda lingvokulturologiya, lingvopoetika, semiotika yo‘nalishlari mavjud degan xulosaga kelindi.

Yu.M.Lotman timsol tabiatini semiotik jihatdan ochib bergan, uning o‘rganilish mexanizmi mavjud. Ushbu mexanizm til, matn, madaniyatga bog‘liq va timsosyujeti orqali bog‘lanish xususiyatiga ega.

1.2. Yapon va o‘zbek mental olamida “qush” tushunchasining tasavvur ko‘lami

Dunyo xalqlari madaniyatida qushlar muhim ahamiyat kasb etadigan jonzotlar hisoblanib, har bir xalq qush bilan bog‘liq o‘ziga xos tasavvurlarga egadir. Yapon

¹⁹ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000 г. 242 стр

va o‘zbek xalqlarining qushga bo‘lgan munosabati va u bilan bog‘liq qarashlar haqida gapirishdan oldin, qush haqidagi eng umumiy tushuncha va tasavvurlarga to‘xtalib o‘tsak.

Qushning parvozi, osmon bilan yerning uzviy bog‘liqligining ramzi sifatida qo‘llaniladi. Yunonistonda qush ma‘nosi anglatadigan so‘z “biror narsaning nishonasi”, “alamat” hamda “ilohiy bashorat” ma‘nosini beruvchi so‘zlar bilan sinonimdir. Bu qushning Daotsizmda anglatadigan ma‘no mazmunidir. Daoitsizimda qalandar “yengillik”, yer yuzasidagi “og‘irlik” dan ozod bo‘lish ma‘nosida, qushning ko‘rinishiga kirgan. Qurbonlikka keltirilayotgan, qurbonlik marosimidagi raqs ijro etayotgan odam “osmonga uchib ketayotgan qush” ga aylanib, “Brahmana” (ilohiy bosqich) gacha ko‘tarilgan. Shu nuqtai nazardan, qush jismdan ozod bo‘lgan ruh, yoki bo‘lmasa aqliy funksiyaning fazasidir (Rigvedada “aql, qushlarda yuksak darajada” deb aytilgan). Yozma tarix yuzaga kelmasadan oldingi davrdagi qushlar ya‘ni odamlar tomonidan chizilgan rasmlardagi qushlar (Altamir, Lasko) yuqoridagi ma‘lumotlarga o‘xshash holda izohlangan. Qushlar ruhning parvozi, yoki shamanizmdagi baxt-saodatni anglatuvchi parvoz hisoblangan²⁰.

Qushlar turli xil diniy sistemalarning, mifopoetik an‘ana va udumlarning ajralmas elementi bo‘lib, simvolika va ramzshunoslikda keng namoyon bo‘ladi. Qushning ramz sifatidagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi: qanotlarining mavjudligi va uchish qobilyati; ochiq havo bilan aloqadorligi; harakatlarining erkin, yengil va tez ekanligi; sayrash va nutq qobilyatiga ega ekanligi. Ko‘p hollarda qushlar ijobiy obraz va belgi sifatida qaraladi. Qushlarning keng ko‘lamli ma‘nolari orasidan uning ramzshunoslikdagi bir nechta asosiy “vazifalar” ini ajratib olishimiz mumkin.

Qushlar ilohiy timsol sifatida dunyoning yaratilishi to‘g‘risidagi mif, afsonalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ko‘pchiligida qush obrazidagi samoviy ruh yoki ilohiy yaratuvchining yordamchi qushi, yaratuvchining oddiy

²⁰ ジャン・シュヴァリエ アラン・ゲールブラン「世界シンボル大事典 Dictionnaire des Symboles」株式会社大修館書店、1996年12月15日 715ページ

obrazi bo'lgan ulkan qushi bo'lmish buyuk iloh-qush mavjud. Katta qushlar aksariyat hollarda osmon ma'budlari: momoqaldiroq, shamol, to'fon, dovul, chaqmoq kabilar ramzi sifatida keladi. Ba'zida qushlar "ikkinchi darajali" iloh-qush yoki odamlarning yordamchisi sifatida gavdalanadi. Juda ko'p mif va afsonalarda qushlar odamlarning, xalq qahramonlarining ongli, aqlli maslahatchisi, ittifoqchisi deb sanaladi.

Qushlarning eng keng tarqalgan "vazifa"si, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, uning odam qalbi, ruhini ifodalashidir. Bu insoniyatdagi juda qadimiy va keng tarqalgan qush bilan bog'liq tasavvurdir. Qush ko'rinishidagi ruh tog'risidagi tasavvurlar Misr, Ikki daryo oralig'i, Yunoniston, Xitoy va Sibir (evenklar, oltoyliklar, yoqutlarda), Janubiy Amerika (bororo hindulari) kabilarning qadimiy madaniyatida uchraydi. Ko'p hollarda qushning ruh bilan aloqadorligi to'g'risidagi qarashlar turli xil xalq madaniyatida farqlanishi mumkin. Ba'zi bir xalqlarda qushning jismi odam vafot etganidan so'ng, uning tanasini tark etgan ruh joylashadigan jism bo'lsa, ba'zi bir xalqlarda u narigi dunyoga yo'l ko'rsatuvchi mavjudot hisoblanadi. Shu sababli ko'p hollarda qush-ruh obrazi, uning yaqin o'limdan xabar beruvchi qush obrazi bilan tenglashtiriladi. Qushlarning bir vaqtning o'zida ham ruhlar dunyosi, ham inson ruhi, qalbi bilan bo'lgan aloqadorligi, uni ilohiy dunyoning xabarchisi va boshqa samoviy daraja va dunyoga yo'l ko'rsatuvchi ramzga aylantiradi.

Ilohiy donishmandlik, foydali ma'lumot yetkazib beruvchi qurol sifatida, qushlar bashorat ilohi timsoli va bashorat qilish jarayonlarida "substrat" sifatida gavdalanadi.

Qushlar ilk ajdodlari, qabilalarning totemlari bo'lgan degan qarashlar ham keng tarqalgan. Totem sifatida ham "ijobiy" ("xudolar") qushlar (kabutar, burgut, oqqush va boshqalar), ham boshqa xalqlarda "salbiy" qush sifatida qaraladigan (qarg'a, boyo'g'li, chumchuq va boshqalar) qushlar, hamda "ovlab bo'lmaydigan" mayda (bigiztumshuq va hokazo) qushlar gavdalangan.

Xudolar, qahramonlar yoki o'zga mohiyatlar (metamorfoza, qarashlar, xizmat va hokazolar) bilan turli xil bog'liqlik qushlarga xos xususiyatdir. Qahramonlarni

qushga aylanish to'g'risidagi folklor mavzu juda keng tarqalgan. Masalan, ertakdagi go'zal qizlar yuvinib bo'lganlaridan so'ng oqqush, o'rdak yoki kabutarga aylanishlari, yalmog'iz, afsungarlarning va yovuz kuchlarning ukki, zag'izg'onga aylanishlari misol bo'la oladi²¹.

Yapon xalqi madaniyatida ham qushlar har doim o'ziga xos o'rin egallab kelgan. Yaponlar ham yuqorida ta'kidlab o'tgan xalqlardek qushni eng avvalo inson ruhini o'zga dunyoga olib boruvchi jonzot deb hisoblashgan. Yapon xalqida qushlar tog'risidagi tasavvurlar diniy soha asosida shakllangan. Qushlar haqidagi qarashlar sintoizm nuqtai nazaridan ochib beriladi. Sintoizmدا qushlar yaratuvchanlik prinsipi timsoli sifatida nomoyon bo'ladi.

Qadimiy davrlarda qushlar yapon madaniyatida muhim rol o'ynab, o'zida keng ramziy ma'nolarni ifodalagan. O'zida shamanizmning ko'p elementlarini mujassamlashtirgan sintoizmدا, odamlar dunyosi va xudolar dunyosi o'rtasidagi vositachi bo'lmish qushlar muhim ahamiyatni kasb etgan.

Ornitologiyaga oid dalillar Yaponiyaning turli xil marosimlarda, dafn marosimlarida ko'p uchraydi. Milliy madaniyat rivojlanishining ilk davri Yaoiy davrida qushlar muhim ilohiy va diniy funksiyani bajargan. Buni arxeologik qazishmalar jarayonida fol ochish uchun mo'ljallangan dotaku haykallari va toshbaqaning zixrlari bilan topilgan qush haykalchalari dalillaydi. Bundan tashqari ommaviy marosimlarda qo'llaniladigan xo'roz ko'rinishidagi sopol idishlar ham topilgan. Kofun (IV-VI asrlar) davrida esa shinto ibodatxonasini eslatuvchi, tomlari qushlar bilan bezatilgan binonning rasmi ifodalangan oyna, hamda shaharning guruch ishlab chiqaruvchi tumanlarida tepa qismida ilohiy vositachi qushlar uchun ramziy qo'ndiq o'rnatilgan taxta darvozalar ham topilgan. Aynan mana shular qandaydir ma'noda "torii" (yapon ibodatxonalariga kirish joyida o'rnatiladigan katta ustun shaklidagi darvoza) boshlang'ich manbaa bo'lgan, "qush uchun joy" degan so'z ham aynan mana shu yerdan kelib chiqqan. Bunday darvozalarni yasash Yaponiyaga qishloqqa kiradigan joyga mana shunday darvozlarni o'rnatish udum

²¹www.symbolarium.ru/index.php/Птицы#cite_ref-6

bo‘lgan janubiy xitoyliklardan kirib kelgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek qushlar yapon dafn marosimlarida muhim rol o‘ynagan. Inson vafot etganidan so‘ng oqqushga aylanishi haqidagi miflar ham mavjud. Kofun davrida dafn etilgan joyga qo‘yiladigan, qushlar, tovuq, xo‘roz hamda tomlari qushlar bilan bezatilgan uychalar shaklidagi sopol “xaniva” haykalchalari keng tarqalgan. Yaponlarda ham qushlar odamlar ruhini tashuvchi jonzot bo‘lib, ularning parvozi o‘limdan keyingi dunyoga yetaklovchi yo‘lning timsoli bo‘lgan²².

O‘zbek xalqining tasavvur va qarashlariga keladigan bo‘lsak, ular Markaziy Osiyoda yashagan qadim odamlarning odam va olam haqidagi ilk tushunchalariga borib taqaladi. Qadim ajdodlarimiz kishining jonini qafasdagi qush misolida tasavvur qilishgan va kishini vafot etsa, “joni uchdi” deb e’tirof etishgan. Keyinchalik esa “uchmoq” “ujmoh” tushunchasiga o‘zgarib ilk islom davrigacha odamning jon qushi uchib boradigan balandlik, yuqori olam, jannat kabi ma’nolarda ishlatilgan²³.

Umuman olganda, barcha qush ramzlari ostida qadimgi ajdodlarimizning olam va uning hodisalari, tiriklik va yashash tartibotiga oid ilk tasavvur va tushunchalari o‘z ifodasini topgan. Bizgacha yetib kelgan mifik parchalarda qush yaratuvchi, himoya qiluvchi, u yoki bu qabila-urug‘ning totemi sifatida tilga olingan.

1.3. Yapon va o‘zbek tilida qushlarning turlari bilan bog‘liq tasavvurlar

Yapon va o‘zbek xalqlari madaniyatida qushlarning turlari bilan bog‘liq tushuncha va tasavvurlar qadim zamonlardan shakllanib kelgan bo‘lib, har bir xalqning muayyan bir qush turi to‘g‘risida o‘ziga xos qarashlar mavjud.

Yaponiyada qarg‘a Xitoyga o‘xshab, “ota-onaga bo‘lgan minnatdorchilik qalbi” ramzini ifodalaydi. Qarg‘a o‘z ota-onasiga muruvvat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, jamiyatdagi ierarxik ketma-ketlik ijobiy tarzda ekanligidan dalolat beradi deb Han

²² ru-jp.org/bulanaya.htm А.А.Буланая “Отражение синтоистского культа природы в искусстве:птицы и животные в японской поэзии”

²³ <http://feb-web.ru/feb/ivl/vl2/vl2-1962.htm> Стеблева И.В. Древняя тюркоязычная литература. 200 стр.

davri odamlari o‘ylashgan. Shu bilan birga qarg‘a oilaga bo‘lgan mehr-muhabbat razmidir ham. Bundan tashqari qarg‘a Sintoizmida xudo ya’ni “kami”ning vositachisidir. Odamlar uchun qarg‘a biror bir yaxshi narsadan dalolat beruvchi qush, g‘alabaning xabarchisi, sahovat ramzi deb hisoblangan. Aniq qilib aytganda, bu xislatlar quyosh rangidagi, qizil rangli qarg‘aga tegishlidir. Xitoyda qarg‘a quyosh qushi hisoblanadi. 10 ta qarg‘a “borliqqa nur” olib kelish uchun sharqdagi tut daraxtidan uchib kelgan ekan. Aynan mana shu rivoyat Yaponiyaning “Sinto” diniga kirib kelgan. Ana shu 10 ta qarg‘adan 9 tasini Xitoyning qadimiy afsonasidagi mashhur kamonchi otib tushirgan ekan. Agar u bu ishni qilmaganida, borliq kul bo‘lib yonib ketar edi deb qayd qilingan xitoy manbaalarida²⁴.

Burgut qushlar orasida hukmdor qush hisoblanadi. Bundan tashqari antik davrdagi xudo Uran hamda olov ya’ni quyosh timsoli, vakilidir. Faqat burgutgina ko‘zlariga jarohat bermay quyoshga tik qarab tura oladi. Muhim ahamiyatga ega ramz bo‘lgan lochin, g‘arb sivilizatsiyasida, hamda boshqa xalqlar sivilizatsiyasida, qudratli, buyuk mabudlar hamda qahramonlarning timsoli, yoki bo‘lmasa, ularning hamrohi sifatida gavdalanib, hatto ertaklarda ham ko‘p uchragan.

Burgut Osiyo hamda shimoliy Osiyoning xudo haqidagi rivoyatlarida quyoshning vakili, timsoli sifatida beriladi. Bu holat Amerika hindulariga ham xosdir. Burgutning qanotlari, uning suyaklaridan yasalgan xushtak “quyoshga qarab raqsni” ni bajarishi kerak bo‘lgan odamlar uchun zarur asbob bo‘lganligi sababini osongina tushunsak bo‘ladi. Asteklarda va albatta yaponlarda ham shunday an’ana mavjud bo‘lgan. Yapon xalqi uchun ham burgut “xudoning vakili”, “kuch-qudrat”, “quyosh qushi” hisoblangan.

Uzoq Sharq, Yaponiyada qo‘ton turna bilan adashtirib yuborish oson bo‘lgan, “boqiylik” ramzini ifodalovchi qush sanaladi. Yaponlarning fikricha qo‘ton “uzoq umr” ramzi bo‘lib, u aql bovar qilmagan yoshga yeta oladigan kuch egasi hisoblanadi. Biroq, 600 yoshga kirganda, suv ichish bilan kifoyalanib, hech nima yemagan holda,

²⁴ ジャン・シュヴァリエ アラン・ゲールブラン「世界シンボル大事典 Dictionnaire des Symboles」株式会社大修館書店、1996年12月15日 216ページ

2000 yoshga yetadi va qop-qora tusga kiradi. Bu qush, yovvoyi quyon hamda qarg‘a kabi, daoitsizmning alkimyogarlari tomonidan ardoqlangan.

Kalxat Yaponiyada mabud va xudolarning qushi hisoblanadi. Ilk yozma manbalardan hisoblanmish “Nihonshyoki”dagi ma’lumotlarga qaraganda, qadimgi davrda yashagan imperator Jinmuning kamonining ustida qo‘nib, g‘alabaga yo‘l boshlagan qush oltin rangli kalxat bo‘lgan emish. Ayrim marosimlarda, imperatorning yonboshida, har doim kalxat ifodalangan. Misrdagidek, kalxat qabilalarning gerblarida ham tasvirlangan²⁵.

Tovuq qadim zamonlardan boshlab boqila boshlangan xonaki qush bo‘lib, Yaponiyada ham tovuqning sopol haykalchlari (xaniva) qo‘rg‘onlardan topilgan. Ilk yozma manba “Kojiki”dagi Amanoivato deb nomlanuvchi xudolar to‘g‘risidagi rivoyatda “boqiy dunyoning boqiy sayraydigan qushi” deb qayd qilingan tovuqqa tegishli dalillardan, uni qadimdan odamlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etganiga ishonch hosil qilamiz.

Eski kana yozuvida tovuq so‘zi hozirgi “nivatori” emas “nihatori” deb yozilgan bo‘lib, yovvoyi qush ma’nosini anglatuvchi “nottori” (野つ鳥) esa, dehqonlarning dalasida boqiladigan qush, xudolarga bag‘ishlangan marosimlar o‘tkaziladigan bog‘da yashaydigan qushni nazarda tutib nihattori (庭つ鳥) deb aytganlar. Bu tovuqning qadimda qo‘llanilgan nomi bo‘lgan. Yaponiyada tovuqlar ilohiy kuchga ega deb hisoblanib, xudoning vositachisi sifatida jinjyalarda (ibodatxona) larda ham boqilgan. Tong otgani haqida birinchilardan bo‘lib xabar beruvchi xo‘roz (tovuq) qichqirishi to‘g‘risida tunda harakatda bo‘lgan yovuz kuchlarni haydaydi degan qarashlar mavjud bo‘lgan. Yuqoridagi mulohazalardan, Yaponiyada xonakilashtirila boshlagan tovuqlar oziq-ovqat manbai sifatida emas, balki ibodat qilish jarayonida qo‘llaniladigan qushlar bo‘lgan degan taxminlar ham yuzaga keladi. Tovuqlarning tuxumi ovqat uchun ko‘p ishlatilgan bo‘lsa-da, go‘sht

²⁵ ジャン・シュヴァリエ アラン・ゲールブラン「世界シンボル大事典 Dictionnaire des Symboles」株式会社大修館書店、1996年12月15日 387ページ

yoki baliqdek ko'p iste'mol qilinmagan. Oziq-ovqat manbai sifatida keng tarqalgan davr Edoning so'nggi davrlari hisoblanadi.

Ko'p xalqlarda tinchlik, osoyishtalik ramzi bo'lmish kabutarlar Yapon xalqi uchun ham ahamiyatli qush bo'lib, ayrim sulola gerblarida tasvirlangan. 1180 –yillar Heian davrining oxirilaridan boshlab, kabutarlarni musobaqalardan oldin jangovar ruhni ko'tarish uchun uchira boshlaganlar. Kabutarlar urush paytida g'alaba uchun duo qiluvchi xudo Hachimanguning vositachisi bo'lib, g'alaba xabarchisi hisoblangan. Samuraylar paydo bo'lmisidan oldin Fujivara hukmronligi davrida o'simlik ornamentlarini yasash udum bo'lib, o'simliklar bilan kabutar birgalikda aks ettirilgan omela (daraxtlarga yopishib o'sadigan yashil buta) gerbi ham vujudga keladi. Bu gerb Yaponiyada Sengoku davrigacha bo'lgan tinch osoyishta davr ramzi hisoblangan ²⁶.

Ko'p xalqlarda quyosh ramzi (quyosh teng kunligi bilan to'g'ri keladigan mavsumiy migratsiyasi sabab) sifatida talqin qilinadigan g'oz yaponlar uchun kuzgi qush bo'lib, aynan shu faslni ifoda etadigan ramz hisoblanadi ²⁷.

Yaponiya o'rdak bilan bog'liq qarashlar Xitoy bilan deyarli bir xil. Yaponiya uzoq davrlar mobaynida Xitoy bilan turli xil sohalarda uzviy bog'liq bo'lib, rivojlanganligi tufayli har ikkala xalqning madaniyatida o'zaro o'xshashliklar juda ko'p. Yaponiyada Xitoydagidek o'rdak er-xotin o'rtasidagi baxt, sodiqlik, go'zallik hamda rohat-farog'atni anglatuvchi timsol sanalgan. Urg'ochi o'rdak hamda erkak o'rdak birgalikda sevishgan juftlikni, o'zaro e'tibor, sodiqlikni anglatadi. Mandarin o'rdaklarining juftligi er-xotin o'rtasidagi baxt-soadatning an'anaviy ramzidir. Aynan mandarin o'rdaklarining achinarli ayrilig'i haqidagi ertaklar yapon va xitoy folklorida juda mashhur ²⁸.

²⁶ engimono.net/articles/K7Zmg

²⁷ www.symbolarium.ru/index.php/Гуцб

²⁸ www.symbolarium.ru/index.php/Утка

Hajmi jihatidan kichkina qushlar turiga kiruvchi chumchuq erta bahorda ko‘chat va daraxtlardagi zararkunanda hasharotlarni yeydigan foydali qush, ham kuzda daladagi guruch boshoqlaridagi donlarni yeb zarar keltiradigan zararkunanda hisoblangan. Qadim davrlardan kuzda, zararkunanda chumchuqni haydash uchun “chumchuqni quvlash” (suzumeoi), qushni quvlash (torioi) deb atalmish an’ana mavjud bo‘lib, u bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlari, xalq ertaklari hozirgacha ham yetib kelgan. Odamlar yasaydigan dala qo‘riqchisi ham chumchuqlarni haydash uchun qo‘llanilgan. Odamlar zararkunanda qushlar hamda chumchuqlarni haydashga harakat qilishgan bo‘lsalar-da, rivoyat va ertaklarda tasvirlangan murruvatli, yaxshilikni yerda qoldirmaydigan xislatga ega chumchuqni ardoqlaganlar. Chumchuq ko‘p chiriq-chiriq qilib sayrayverganligi uchun, uni g‘iybatni yaxshi ko‘radigan odamlarga tenglashtiradilar²⁹. Bundan tashqari Yaponiyada chumchuq bilan bog‘liq ilohiy qarashlar ham mavjud. Qadimda Sogano Umakoni (zukko, o‘tkir zehni siyosatchi, davlat maslahatchisi) qushga qiyoslangan, kamdan kam uchraydigan “oq chumchuq” yaxshilikdan dalolat beruvchi qush sanalib Shoumu imperatori (701-756) hamda Kanmu (737-806) imperatorlari “oq chumchuq” ni sovg‘a, in’om sifatida qabul qilishni xohlaganlari haqidagi qaydlar saqlanib qolgan.

Chumchuq uzoq davrlardan beri odamlarga yaqin bo‘lib, yashab kelgan qush bo‘lsa-da xonakilashtirilmagan. Chunki, uning qanotlari kuchli va harakatlari tez bo‘lganligi sababli, qafas ichida harakatlanaverib o‘ziga ozor yetkazishi juda oson bo‘lganligi, donni juda ko‘p iste’mol qilganligi tufayli chiqindisi ham boshqa qushlar bilan solishtirilganda ko‘pligi, qumda yuvinishni xush ko‘rganligi uchun qafas ichida gazeta qog‘oziga tanasini ishqalab don hamda chiqindisini atrofga sochib yuboradi. Shu sababli uni odamlar xonaki qush sifatida boqa olmaganlar.

Yapon xalqida eng mashhur qush turna hisoblanadi. Yaponlar turnani o‘ziga xos qush sifatida ardoqlab kelishgan. Ular turnani bir necha ming yil hayot kechira olishiga ishonadilar. Qariyalarga turna, toshbaqa hamda qarag‘ay rasmini yoki

²⁹ 中川雄三『ひと目でわかる野鳥』、成美堂出版、2010年1月。ISBN 978-4415305325 223 ページ

suratlarini berish an'anasi mavjud bo'lib, bu uchta jonzot uzoq umr ramzi hisoblanadi

30.

O'zbek xalqi ham yaponlar kabi muayyan bir qush turi bo'yicha o'ziga xos tasavvurlarga ega bo'lib, bular asosan madaniyat, din asosida vujudga kelgan albatta. Qadimda turkiy xalqlar sirasiga kirgan o'zbek xalqining qushlar bilan bo'g'liq tasavvurlari qadimgi turkiy xalqlarining mif, afsonalari zaminida shakllangan deb ayta olamiz. Turkiy xalqlarda qadim zamonlardan hayvonlar bilan bog'liq turli xil marosim va e'tiqodlar mavjud bo'lgan. Ular ayrim hayvonlar omad, baxt olib kelsa, ba'zi bir hayvonlar esa aksincha omadsizlikka olib keladi deb ishonganlar. Mana shunday e'tiqodlar asosida turli xil ertak va afsonlar yaratilgan albatta. Qarg'a turkiy xalqlar madaniyatida erta uyg'onishning ramzi hisoblanadi. Qarg'a insonlarga hamroh, yo'ldosh bo'la olmasligiga qattiq ishonilgan. Turkiy xalqlar og'zaki ijodida qarg'ani o'ziga yo'ldosh qilgan, baxtsizliklardan qochib qutulolmasligi to'g'risida ham maqollar mavjud. Buni quyidagi mif orqali izohlashimiz mumkin. Turkiy xalqlarning mifologiyasigasida keltirilishicha, Nama ismli inson bo'lib unga Tangri tomonidan dunyoni suv bosishi haqida xabar kelgan. Uning kemasi tog'ning cho'qqisiga yetganda, u suvning chuqurlik sathini aniqlab kelish uchun to'rtta qushni: qarg'a, zag'izg'on, quzg'un hamda kabutarni yuboradi. Birinchi uchta qush bu vazifani uddasidan chiqa olmaydilar. Kabutar esa og'zida zaytun novdasi bilan qaytib keladi. Bu suv qaytayotganidan dalolat berar edi. Nama o'liklarni cho'qilab yeydigan qarg'a, zag'izg'on hamda quzg'unni umrbod o'liklar bilan oziqlanishga hukm qilib, ularni jazolaydi. Vazifani bajara olgan kabutarga esa odamlar orasida yashashga ruxsat etilgan ekan. V. Radlovning "Turkiy qabilalarning xalq adabiyoti namunalari" asarida qarg'aning go'ng hamda ninachi bilan oziqlanishi, odamlar esa uni sababsiz oziqlantirmasligi haqidagi qaydlar ham mavjud³¹.

³⁰ ジャン・シュヴァリエ アラン・ゲールブラン「世界シンボル大事典 Dictionnaire des Symboles」株式会社大修館書店、1996年12月15日 230ページ

³¹ В. Радлов. Образцы народной литературы тюркских племен. Часть IX. Санкт-Петербург 1907 г. 346 стр

Ovchi qushlar bilan ov qilish ko‘chmanchi xalqlarning qadimiy san’atlaridan biri bo‘lgan. Shu sababli, turkiy qabilalar va umuman ko‘chmanchi xalqlarda lochin, burgut, qarchig‘ay bilan bog‘liq juda ko‘p totemlar uchraydi. Xon va xoqonlar saroylarida yuzlab qushlarni boqishgan. Bosh lochinboquvchining lavozimi hisoblanmish qushbegi, azal-azaldan hurmatli ish sanalgan. Agar bo‘lajak ona tushida lochin, burgut yoki qarchig‘ay kabi qushlarni ko‘rsa, botir farzandlar tug‘ilgan. So‘ngra shunday ovchi qushlar uning yurishlariga, urushlariga yo‘ldosh bo‘lgan. Yirtqich qushlar oq quyruq, jayron, tog‘ echkilari, to‘ng‘iz hatto ayiq kabi katta o‘ljalarga ham tashlanib, hujum qila olgan. Yirtqich qushlarning oyoqlariga xo‘jayinning ismi yozilgan kumush osilmachiq osib qo‘yilgan. Shu sababli tutib olingan qushlarni har doim egalariga qaytarganlar. Ovchi o‘zining burgutini ozodlikka qo‘yib yuboradigan qadimiy an’analar mavjud bo‘lgan. Bu qush ov vaqtida ko‘p o‘ljani olib kelishi uchun mavjud bo‘lgan an’ana hisoblangan. O‘lja qancha ko‘p bo‘lsa xonadonda shuncha ko‘p to‘qchilik bo‘lgan. Agar ovchi uylansa, uning farzandlari sog‘lom bo‘lib, ularni va ularning uyini ovchi qushlar qo‘riqlaydi deb hisoblangan. Ovchi burgutning tirnoqlariga kumush uzukni taqib, qo‘liga o‘tqazgan holda uni tog‘larga olib chiqqan. U yerda burgutga to‘ygunigacha ovqat berib, ozodlikka qo‘yib yuborgan. Shu bilan birga ovchi “Sen menga sodiq bo‘lib uzoq xizmat qilding, xonadonimga baraka, boylik olib kelding , sen menga sog‘lom farzandlarni ato etding. Men seni ozodlikka qo‘yib yuboryapman. Sening ham o‘z uying va farzandlarin bo‘lsin”-deya minnatdorchilik bildirgan. Agar burgut yana odamlar qo‘liga tushib qolsa, ular uzukni ko‘rishi bilan burgutni ozodlikka qo‘yib yuborishi kerak bo‘lgan. Chunki burgut o‘z xizmatlarini bajargan bo‘lgan edi. Mazkur ovchi qushlar bilan ular olib kelgan boylik, baxt hamda baraka odamlarning uyida qoladi deb hisoblangan. Ovchilar hech qachon o‘zining yo‘ldoshlarini hech kimga bermaganlar, chunki bunday qushlar uyni tark etsa, ular bilan birgalikda omad hamda baraka ham ketib qoladi degan tasavvurlar mavjud bo‘lgan.

Kabutar turkiy xalqlar madaniyatida unumdorlik, do‘stlik, vafodorlik hamda tinchlik ramzi hisoblanadi. O‘rta Osiyoda kabutarning go‘shiti iste’mol qilinmasligi

sababi ham shunda. Kabular bilan bog‘liq tasavvurlar yuqorida keltirib o‘tgan afsonamiz bilan uzviy bog‘liq. Qadimdan turkiy xalqlarda kabutarni xat tashishga o‘rgatganlar va ulardan keng foydalanganlar³².

Qushlarning ichida farovonlik ramzi, bahor darakchilari bo‘lgan turnalar alohida o‘rin tutadi. Bu qushlar kunlar soviy boshlashi bilan olis yurtlarga, issiq o‘lkalarga uchib ketadi. Ammo bahor kelgacha, yana ona zaminimizga qaytib keladi. Aytishlaricha, ular pastlab uchsa, boshlangan yil barakali kelib, elda to‘kin-sochinchilik bo‘lar ekan. O‘zbekistonga turnalar uchib keldimi, demak ko‘klam kelibdi, ular pastlab uchdimi, demak elda farovonlik, qut-baraka bo‘ladi degan qarashlar mavjuddir. Turna ayrim turkiy xalqlarning totemi hisoblanadi.

II BOB. YAPON VA O‘ZBEK MAQOLLARIDAGI QUSHLAR TIMSOLINING TAHLILI

³² <http://www.trt.net.tr/russian/proghrammy/2014/11/21/turietskiie-traditsii-i-obychai-47-195392>

2.1. Yapon pretsedent matnlarida qushlar timsoli tahlili

Yapon tilidagi pretsedent matnlarda ya'ni maqollarda ko'plab qush turlarining timsollari uchraydi. Mochitsugi Hisatakaning "Amalda qo'llaniladigan asl maqollar lug'ati" (Jitsuyou koji kotowaza jiten) kitobidagi maqollar ichida 26 ta turdagi qushlar ishtirokidagi maqollar uchraydi. Mazkur bobning yapon tilidagi maqollar tahliliga bag'ishlangan qismida aynan mana shu manbada berilgan maqollar izohiga tayanamiz.

Qarg'a bilan bog'liq maqollar

1. Qarg'ani qoravoyga ishlatish demakdir

Aqlsiz, bilimsiz odamni aql va bilim talab qiladigan ishga ishlatishga qiyoslanmoqda.

2. Qarg'ada ota-onaga qaytaradigan farzandlik burchi bor

Qarg'a katta bo'lganidan keyin, ota-onasining og'ziga yemish olib kelib, ularning oldida farzandlik burchini qaytaradi degan ma'noni anglatmoqda. Bu maqoldagi qarg'aning ishi ota-onaning oldidagi farzandlik burchini ado etish holatiga tenglashtirilmoqda. Xatto qarg'ada ham odob-axloq, muruvvat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ularni unutmagan holda ota-onasining muruvvat ko'rsatadi.

3. Qarg'aning ko'mib yeyishi

Qarg'a, yerni tagiga ko'mib qo'ygan yong'og'ini tezda unutib qo'yadigan odatidan uni essiz, tez unutuvchan odamlarga qiyoslashadi. Maqtanib maqtanib esidan chiqarib qo'yadigan odamning majoziy qiyosi. 2) Boshqa odamlardan berkitib, faqat o'zigina bahramand bo'lishning qiyosi.

4. Qarg'aning qoraligini emas, uning og'zini yoqtirmaydilar

Xunuk bo'lib tug'ulganligi na iloj, uning aybi emas, lekin tilini yomonligi o'sha odamning beodob, be'tibor, betayinliligidir. Shuning uchun uning bu xislati o'zgalarga yoqmaydi.

5. Qarg'a o'z bolasini eng chiroyli deb o'ylaydi

Kimning bolasi bo'lishidan qat'iy nazar, ota-ona o'z bolasini hammadan chiroyli deb o'ylaydi. Xunuk, yoqimsiz farzand bo'lsa ham, ota-ona ko'zi

uchun undan yoqimligi yo‘q.

6. Qarg‘a qushlar orasidagi So‘shin

(So‘shin Konfutsiyning shogirdi. Ustoz oldidagi burchni ado etganligi bilan mashhur) “Qarg‘a o‘ziga ko‘rsatilgan muruvvatni qaytaradigan qush sanalib, qushlar orasida So‘shinga qiyoslanadi.

7. Kambag‘al qarg‘ani Bonda oftob uradi

Omadsiz qarg‘a qabrga qo‘yilgan tortiq ne‘matlar ko‘p bo‘ladigan Urabon (chiroqlar bayrami) paytida og‘ir kasal bo‘lib qolib, o‘sha ne‘matlarni yeya olmaydi. Bu maqoldagi qarg‘ani ahvoli ko‘zini oldidagi foydani ololmaydigan omadsiz holatga o‘xshatilmoqda.

8. Qoravoyning qilig‘ini qaytaradigan qarg‘a

(Qarg‘a qoravoyga o‘xshayman deb suvda cho‘kishidan) O‘zining imkoniyatlari va ahvolini hisobga olmasdan, boshqa odamlarga o‘xshayman deb ularni qilig‘ini qaytarib, muvaffaqiyatsizlikka uchragan odamning majoziy qiyosi.

9. Qayerning qarg‘asi bo‘lmasin hammasi qora

Qarg‘a qayerga bormasin qoraligicha qolaverganidek, odam urf-odat, qadriyat o‘zirikidan farq qilsa ham u o‘zgarmaydi.

10. Qarg‘a yuz marta yuvinsa ham qo‘ton bo‘la olmaydi

Qora tanli kimsa, nima qilsa ham oq bola olmaydi. Tug‘ilganidan ato etilgan holatni o‘zgartiraman desa ham foydasi yo‘q.

11. Tomdagi qarg‘aning muhabbati

Sevgining jo‘shqinligidan, sevgilisi uyining tomida to‘xtab qo‘ngan qarg‘ani ham yaxshi ko‘rish holati ifodalanmoqda. Qattiq sevgiga qiyos qilinmoqda.

Yuqoridagi maqollarda qarg‘aning uning turli xil xislatlaridan kelib chiqqan, kengaygan ma‘nolari mujassamlashgan. Masalan, uning aqlsiz (3,8), unutuvchan (3), xunuk (4, 5), omadsiz (7) kabi salbiy xislat va xarakteri ifodalangan. Shu bilan birga uning ijobiy taraflarini, ya‘ni muruvvatni unutmeydigan, farzandlik burchini ado etadigan (2, 6) qush sifatida kelib, ana shunday odamlarga majozan

qiyoslantirib qo‘llanilishini ham uchratishimiz mumkin. Qarg‘adek odamlar yomon ko‘radigan qush bo‘lmaganidek, yapon tilida asosan salbiy bo‘yoqdagi maqollar ko‘p uchrab, ularda ko‘rinishi qop-qora, xunuk, ovozi ham yoqimsiz bo‘lgan qarg‘aning salbiy timsolini ko‘rishimiz mumkin.

Lochin bilan bog‘liq maqollar

12.Lochinni boqmoq demakdir

Shuhratparast, munkir odamdan foydalanish, lochinni boqish bilan tengdir. Lochinning qorni och qolsa, ovda yaxshi harakatlanadi, biroq keragidan ko‘p to‘yinib ketsa, qorni to‘yganidan qoniqadi-da uchib ketib, o‘z ishini bajarmaydi. Shunga o‘xshab boshqalarni xulq-atvoriga o‘xshamagan, murakkab tabiatli odamlardan biror ishda foydalanish juda murakkab.

13.Lochin bo‘lmagan yurtda chumchuq lochinlik qilar

Lochin bo‘lmagan joylarda, kuchsiz hamda kichkina chumchuq lochindek mag‘rur uchib yuradi. O‘zidan kuchli kimsa bo‘lmasa, kuchsiz, nimjon odam ham kerilib yuradi.

14.Lochin aqilli bo‘lsa ham qushlarga kalaka bo‘lar

G‘ururli lochinni ustidan boshqa qushlar kulganidek, aqlli odamdan ham, uning qobilyatlarini anglay olmaydigan ahmoq odamlar nafratlanadilar.

15.Lochin qanotlarini ayar, askar esa nomini ayar

Harbiy hamma narsadan o‘z sha‘nini, nomini ulug‘laydi.

16.Lochin suvga tushib mahoratini yo‘qotar

Yuksak mahoratli, aqlli odam ham, o‘z qobilyatini nomoyon qila oladigan joyda bo‘lmasa qo‘lidan hech qanday ish kelmaydigan kuchsiz bo‘lib qoladi.

17.Lochin mizg‘iganda, qush-chumchuqlar shovqin qilar

G‘ururli lochin mizg‘ib olay deganda, chumchuqqa o‘xshagan kichkina qushlar tinmay sayrab shovqin qiladilar, hukmi o‘tadigan odam e‘tiborsizlik qilsa, parishonxotir bo‘lib qolsa, qolgan odamlar xohlagan ishini qilib, dunyo betartib bo‘lib ketadi.

18. Lochin uchsa go‘ng pashsha ham uchar

Qudratli lochin uchsa, go'ngdagi pashsha kabi bo'lmag'ur hasharot ham uchadi. O'zining o'rnini unutmagan oddiy odam, juda yuksak darajadagi odamga o'xshamoqchi bo'lib uning qilg'ini qilishi.

19. Lochin bilan uchrasha oladigan tustovuq

Qudratli odamning oldida o'zini noqulay his qilib, qo'rqib turgan holat ifodalanmoqda.

20. Buyuk, qudratli lochinning bolasi buyuk, nafosatlidir

Ota-ona buyuk, nafosatli bo'lsa, farzandi ham shunday bo'ladi. Farzandni ota-onasiga o'xshashi qiyoslanmoqda.

21. Buyuk, nafosatli lochinni uchirib ko'rmasdan turib bilib bo'lmas

Namunali, buyuk, kuchli lochinni ham amalda osmonga qo'yib yuborib, uchirib, qush tuttirib ko'rmasdan uni rostdan shunday ekanligini bilib bo'lmaydi. Rostdan amalda tekshirib ko'rish muhimligi ifodalanmoqda.

22. Mahoratli lochin tirnoqlarini berkitar

Aqlli, mahoratli, kuchga ega qudratli odam bekordan bekor o'zini qobilyatlarini ko'rsatib, maqtanmaydi.

23. Kalxat lochin tug'adi

Oddiy ota-onadan buyuk, qudratli farzand tug'ilmaydi.

24. Past tabaqa bilan lochinga yem ber

Past tabaqaning odami hamda tabiati qo'pol odamga e'tibor berib, ularga ovqat yedirib ko'nglini olib, keyin ulardan foydalangan yaxshi.

25. Kalxat ham yashash tarzidan lochindek ko'rinadi

Kalxat ham g'urur bilan harakat qilsa, o'zini lochin kabi tutsa, lochindek ko'rinadi. Yashash-turishi, xatti-harakati to'g'ri bo'lsa, past tabaqaning odami ham baland tabaqaning odamidek ko'rinadi deganidir.

Yuqoridagi maqollarda lochin shuhratparast (12), kuchli (13, 18), g'ururli (14, 16, 25), qudratli, buyuk, aqlli (15, 17, 19, 20, 21, 22, 24), qo'pol (23) kabi kuchli tabiatga ega bo'lgan qush sifatida qo'llanilgan. Yapon tilidagi maqollarda lochinning kuchi chumchuq, tustovuq, qudrati esa asosan tashqi ko'rinishidan

o'xshash bo'lgan kalxat bilan zidlantirilish orqali ifodalanadi. Shulardan kelib chiqqan holda, lochinning timsoli qudratli, kuchli odamning timsoli bilan sinonim timsol deb ayta olishimiz mumkin.

Qo'ton bilan bog'liq maqollar

26.Qo'tonni qarg'a deb aytmoq

Hammaga ayon bo'lgan oq narsani qora deb aytib uqtirgandek, noto'g'ri ishni to'g'ri yoki to'g'ri ishni noto'g'ri deb ta'kidlash. Narsaning asl mohiyatini ataylab teskari qilib aytish. Noratsional, mantiqsiz narsani ataylab to'g'riligiga urg'u berib ta'kidlash.

27.Oq qo'ton chang yerning kiridan o'zini olib qochmaydi

Oq qo'ton oppoq bo'lib, kir yerda tursa ham o'zidan-o'zi kir bo'lib qolmaydi, shu sababli uning uchun kir hech qanday muammo emas. O'ta ozoda odam, qanchalik yomon holat, ahvol va sharoitda bo'lmasin, o'zining yashash prinsipi, to'g'ri deb hisoblagan narsalaridan voz kechmaydi.

28.Qorda qo'tonning bo'lishi

Qor ham oq qo'ton ham, ikkalasi oppoqligi uchun ularni ajratib bo'lmaydi. Ajratib bo'lmaydigan, ajralib turmaydigan narsaning qiyosi.

29.Qarg'a bilan qo'tonni urushtirmoq

Go' (shaxmatga o'xshab ketadigan o'yin) o'ynash. Qarg'a qora, qo'ton oq bo'lganligi uchun, qora va oq toshlar bilan o'ynab bellashish. Toshlarining rangi qushlarga qiyoslanmoqda.

30.Zimiston tunda qarg'a, qorda qo'ton

Mazkur maqol qorong'u tunda qora qarg'a bo'lsa ham, qorli manzarada qo'ton bo'lsa ham ikkalasini u yerda fahmlab olish qiyinligi uchun, ajratib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmoqda.

31.Qarg'a yuz marta yuvinsa ham qo'ton bo'la olmaydi

Qora tanli kimsa, nima qilsa ham oq bola olmaydi. Tug'ilganidan ato etilgan xususiyatini o'zgartiraman desa ham foydasi yo'q. Befoyda urinishlarni to'xtatib, o'z imkoniyatlaridan unumli foydalana olish uchun harakat qilgan

yaxshiroq.

Qo‘ton yuqoridagi maqollarda turli xil ma’nalarda ishlatilib, asosan uning oq rangiga urg‘u berilmoqda. Qor bilan birgalikda qo‘llanilib (28, 30) ajratib bo‘lmaydigan narsa, qora qarg‘a bilan qarama-qarshi qo‘yilib (26, 29, 30, 31) umuman teskari bo‘lgan narsaga qiyoslanmoqda. Yuqoridagi maqollar tahlilidan kelib chiqqan holda, qo‘ton yapon tilidagi maqollarda ozoda (27), to‘g‘ri (26, 27), ko‘zga tashlanmaydigan, ajralib turmaydigan narsaning xususiyatlarini anglatmoqda degan xulosaga kelamiz.

Burgut bilan bog‘liq maqollar

32.Burgutga quyon

Burgutning mo‘ljaliga aylangan quyondek, kuchli odamni o‘ljasiga aylanib, qotib qolish holati ifodalanmoqda.

33.Burgutning inini sichqon mo‘ljalga oladi

Kuchsiz odam, o‘zining imkoniyatlarini hisobga olmay, kuchli odamga qarshi chiqishi. Qo‘zg‘alonda, o‘zining holatini tushunmaslik ifodalanmoqda.

34.Burgut boqib turgan maymunning bolasi

Hatto harakat ham qildirtirmaslik. Qo‘yib yubormay mahkam tutib turish ifodalanmoqda.

35.Burgut barcha qushlarning hukmdori

Burgut hamma qushlar ustidan hukmronlik qiladigan qushdir. Burgut qushlar orasida eng kuchli, boshqa qushlar uchun raqib bo‘la olmaydigan qushdir. Kuchliligi sababli boshqalar uchun raqib bo‘la olmaslik ifodalanmoqda.

36.Burgut pashsha tutmaydi

Qushlarning hukmdori bo‘lmish burgut arzimagan pashshani ovlamaydi. Katta odam kichkina kichkina foydaga ham qiyo boqib qaramaydi degan ma’noni anglatmoqda.

Yuqoridagilarni xulosalaydigan bo‘lsak, burgut ham lochin kabi qudratli qush bo‘lib, yapon tilidagi maqollarda kuch va qudrat ramzi sifatida qo‘llanilishiga amin

bo'ldik. Yapon maqollarida burgut kuchli odamga qiyoslanib (32, 33, 34, 35, 36), qudratli shaxsni ifodalamoqda.

Kalxat bilan bog'liq maqollar

37. Tundagi kalxatga soyaboningni berma

Tunda kalxat sayrasa havo ochiq bo'lishi sababli, kimgadir soyabonni berishga hojat yo'q.

38. Kalxat burgut tug'adi

Oddiy odamdan a'lo darajadagi, yuksak farzand tug'ilishiga qiyos. Farzand ota-onasidan yuksakligi hamda chiroyliligini ifodalamoqchi bo'lganda qo'llaniladigan maqol.

39. Kalxat aburaage (yog'da qovurilgan tofu)ni o'g'irlyaydi

Ehtiyotkorsizlik qilib atrofni e'tiborsiz qoldirsangiz qimmatli narsangizni olib ketishlarining qiyosi. O'zingizniki bo'lishi kerak bo'lgan narsani, e'tiborsizlik qilganingizda kimdir olib ketganidagi holatingizni ifodalash uchun qo'llaniladigan maqol.

40. Kalxatning bolasai lochin bo'la olmaydi

Oddiy ota-onadan tug'ilgan farzand, baribir oddiy bo'ladi. Oddiy ota-onadan yuksak bo'lgan farzand tug'ilmasligining qiyosi.

41. Kalxat yashashidan lochindek ko'rinar

Hatto sotsial holati quyi bo'lgan odam ham tutish-turishi to'g'ri bo'lsa yuqori tabaqa odamdek ko'rinishi mumkinligini ifodalanmoqda.

42. Kalxat ham yemni ko'rmasa raqsga tushmas

Hatto kalxat yem bo'lmasa osmonda raqsga tushmas. Hech kim o'ziga foydasi tegmaydigan ishga qo'l urmaydi degani.

43. Tonggi kalxatga somon to'n kiygiz, tunggi kalxatni somon qalpog'ini yech

Tonggi kalxatning raqsi yomg'irning, tunggi kalxatning raqsi ochiq havoning nishonasidir.

Kalxat yuqorida keltirilgan maqollarda u qadar yaxshi ma'no

gavda'lanmagan. Yapon tilidagi maqollarda kalxat ko'proq lochin bilan qarama-qarshi qo'yilib, oddiy odamga qiyoslanayotgan holatlar (38, 40) ko'p uchraydi. Shu bilan birga kalxat yapon maqollarida past tabaqali odam (41), o'g'rilik qiladigan insonlarga (39) qiyoslanib negativ bo'yoqdagi ramz sifatida qo'llaniladi.

Tovuq bilan bog'liq maqollar

44. Tovuq to'dasidagi bitta turna (yovvoyi turna tovuq to'dasida bor)

(tovuq to'dasini ichida bittagina turnaga aralashib qolgan degan ma'nodan)
Oddiy odamlar orasida bitta yuksak odam aralashib qolganligi ifodalanmoqda.

45. Tovuqni og'zi bo'sang ham sigirning keti bo'lma

(tovuqni kichik guruh, sigirni katta guruhga qiyoslamoda) Katta guruh vakili bo'lgandan ko'ra, kichkina guruhda guruh sardori bo'lgan yaxshi.

46. Tovuqdan to'yib, yovvoyi qirg'ovulni sevmok

Uyda boqayotgan tovuqni yomon ko'rib, yovvoyi qirg'ovulni suymoq. Yaxshi narsani pisand qilmay, yomon narsani ardoqlashga qiyoslab, kamdankam uchraydigan, noodatiy narsani ardoqlashni tanqid qilganda qo'llaniladigan maqol.

47. Tovuq so'ygani molni so'yadigan pichon ishlatmaslar

Tovuqdan ovqat pishirayotganda, molni so'yish uchun ishlatiladigan pichoqni ishlatishga zaruriyat yo'q. Kichkina ishni bajarish uchun katta narsadan yoki bo'lmasa jiddiy usullardan foydalanishga hojat yo'qdir. Biror narsani qo'llash usulida adashayotganida ishlatiladigan maqol.

48. Bitta tovuq qaqqillasa o'n mingta tovuq qo'shiq aytar

(bitta tovuq sayrasa, unga qo'shib boshqalari ham sayraydi) Mazkur maqolda tovuqlarning holati bitta odamning gaplari va harakatlarini boshqa odamlar ham ko'r-ko'rona qaytarish holatiga qiyoslanmoqda.

49. Tovuq to'dasi bilan yashagani qolgan nodon bo'lur

O'rtada janjal chiqishi aniq bo'lganligi uchun, bitta daraxtda urushqoq tovuq, xo'rozlar yasholmaydi. Shu kabi bir nechta qahramonlar ham bitta mamlakatda tinch yashay olmasliklari qiyoslanmoqda.

50. Oliyhimmat kimsa quyon va tovuq bilan o'ynashmas

Bu yerda oliyhimmat odam quyon va tovuqga o'xshagan kuchsiz odamni o'ziga raqib bilmasligi haqida gap ketmoqda.

51. Tovuq tong otgani haqida xabar berar

Tovuq xo'rozdan oldin turib tong otgani xabar berar, bu esa yomon ofatning belgisidir. Bundan tashqari mazkur maqolda ayol kishining erkak kishidan qudratliroq bo'lib qolgan holati ham ifodalanmoqda.

52. Xonaki tovuqdan ko'ra yovvoyi o'rdak

Oddiy narsalarni inkor qilib, yangi, kamdan-kam uchraydigan narsalarni ardoqlash. Oddiy narsa bo'lgani uchun uydagi yaxshi narsalarni pisand qilmay, bosh tashqaridagi kamdan-kam uchraydigan narsalarni yomon bo'lsa-da yaxshi ko'rish holati qiyoslanmoqda.

Yuqoridagilarni xuosalaydigan bo'lsak, yapon tilidagi maqollarda tovuq oddiy(44), kichkina (47), kuchsiz, arzimagan odam (50), kundalik hayotdagi sodda, ko'p uchraydigan narsalar (46, 52) ga qiyoslanib, maqollarda tovuq to'dasi jamiyatdagi oddiy odamlar guruhiga qiyoslangan holda (44, 45, 48, 49) qo'llaniladi deb ayta olamiz.

Kabutar bilan bog'liq maqollar

53. Tongda kabutarni eshitsang egarni qo'yma

Ertalab kabutarning sayrashi, o'sha kuni qandaydir noxush hodisa sodir bo'lishidan xabar beradi. Mazkur maqol ertalab kabutar sayragan kuni ko'chaga chiqishdan qaytish kerakligi haqidagi ogohlantirish sifatida qo'llaniladi.

54. Kabutarni suymagan don ekmas

Dalaga sochib qo'ygan donni kabutar cho'qib ketishini yomon ko'rib, dehqon odamlarga kerakli bo'lgan loviyani ekishni tashlab yuboradi. Arzimagan narsaga oshiqcha ahamiyat berib, zarur bo'lgan donni ekmay qo'yadi. Kichkina narsaga e'tibor berib, o'zi hamda dunyoga, atrofdagi odamlarga zarar keltirib qo'yish holati ifodalanmoqda.

55. Kabutar uchta shox-shabbdagi hurmat qarg'ada ota-onaga qaytaradigan farzandlik burchi bor

Kabutar ona kabutar qo'ngan shoxdan 3 ta past shoxga qo'nib ota-onasiga hurmat ko'rsatadi. Shunga o'xshab qarg'a poloponlik paytida boqqan ota-onasi oldidagi burchini qaytargani uchun, qarg'a ota-onasini og'ziga yemni solib o'sha burchini qaytaradi. Hurmat va ota-ona oldidagi burchni bilish kerak degan tanbeh sifatida qo'llaniladigan maqoldir.

56. Kabutarning tarozisi

(Daichidoron (yapon rohibining sutralarga sharh kitobi) 35 –sharhdan) Sakraddevanam-Indra (buddizmdagi iloh) Sakyamuninig donishmandligi, aqlini o'lchash uchun lochinga aylanib, Sakyamu oyog'ini go'shtini kesib o'lchab, kabutar bilan bir xil og'irlikdagi go'shtini berib kabutarni qutqargan ekan degan rivoyatdir. Bu bilan o'zini qurbon qilib boshqa birovni qutqarish nazarda tutilyapti.

57. Kabutarning donni ishlatishi

Ketganicha, yo'ldagi o'tlarni yeb qaytib kelmaslikka qiyoslanmoqda.

58. Kabutar tasbeh taqsa, chig'anoq jubba (riza) kiyadi

Kabutarning bo'ynida tasbeh taqib qo'yganga o'xshaydigan dog'lar bo'lib, chig'anoq esa xuddi jubba kiyib olgandek shaklda bo'ladi. Qanday jonzot bo'lishidan qat'iy nazar buddizm ularning orasida tarqalgan. Buddizmni belgilarini har qayerda ko'rish mumkin degan fikr ifodalanmoqda.

59. Donni ko'rib qo'nadigan kabutardir

Amaterasu Takamagahara (iloh) orqali qirg'ovul hamda kabutarni Ashiharanonakatsukuni (Yaponiyaning qadimiy nomi) ga yuborganida, uchumiza (tariqqa o'xshagan g'alla), loviya dalasini ko'rib shu ketganicha qaytib kelmagan ekan. Okuninushining Kuniyuzuri deb nomlangan xudolar haqidagi bu rivoyatidan, nafs, xohishga yengilib, maqsad, vazifalarini bajarmaslik nazarda tutilgan.

60. Lochin kabutarga aylana olmas

Bahorda lochin ham kabutar kabi tinch, bosiq, yumshoq bo'lib qolsa-da, biroq

ko‘z qarashi uning haqiqiy tabiatini namoyon qilib qo‘yganligi uchun to‘la qonli kabutarday bo‘la olmaydi. Bosiq, yumshoq bo‘lsa-da asl tabiatida mavjud bo‘lgan yaxshilikni har doim ko‘rinib turishi ifodalanmoqda.

Yuqoridagi maqollarda kabutar ham ijobiy ham salbiy ma‘nolarda qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin. Kabutar yapon maqollarida kichkina arzimagan narsaga (54), hamda diniy xarakterdagi maqollarda ham qo‘llanilib (5), nafsga berilib o‘z vazifalarini unutgan odamga ham qiyoslanadi (59). Bundan tashqari yapon maqollarida kabutarning ota-onaga bo‘lgan farzandlik burchini unutmay muruvvat ko‘rsatishi (55), yumshoq, bosiq (60) tabiati kabi ijobiy tomonlari ham ifodalaniladi.

O‘rdak bilan bog‘liq maqollar

61.O‘rdak ko‘k piyoz bilan birgalikda kelar

(kamonabe (o‘rdak sho‘rva) ni bir zumda tayyorlash uchun, o‘rdak go‘shiti bilan birgalikda ko‘k piyoz bilan olinadi). Bu maqol yaxshi odam foydali narsa olib keladi degan ma‘noni anglatmoqda. Qiziqarli suhbat birin-ketin ulanib ketadi degan ma‘noni ham ifodalaydi.

62.Odamni g‘iybatini qilish, o‘rdakni mazasidek bo‘lar

Kimningdir g‘iybatini qilganda his etadigan yoqimli tuyg‘u, shirin o‘rdakning ta‘miga qiyoslanmoqda.

63. Xolavachcha, amakivachchalar o‘rdak mazasidek bo‘lar

Xolavachcha, amakivachcha, er-xotinlarning munosabati juda yaxshi bo‘lib, o‘rdak go‘shiting mazasidek yoqimli bo‘lishi ifodalanmoqda.

64. Qayta uchrashish o‘rdak mazasidek bo‘lar

Bir marta ajrashib ketgan erkak va ayol, yana qaytadan bog‘lansalar, ularning mana shu munosabati oldingisiga qaraganda yanada yoqimliroq bo‘ladi degan ma‘noni anglatmoqda.

65. Xonaki o‘rdak ham yovvoyi o‘rdakdek mag‘rurdir

Besonaqay xonaki o‘rdak ham o‘zini yovvoyi o‘rdak kabi mag‘rur sanar. Qo‘lidan ko‘p ish kelmaydigan odam ham o‘zicha baland g‘ururga ega bo‘lib,

o‘zlarini mag‘ur tutadilar degan ma’no ifodalanmoqda.

66. O‘rdaklar yig‘ilib harakatlansalar momaqaldiroqqa aylanar

O‘rdaklar ham ko‘pgina bo‘lib yig‘ilib sayrasalar, momaqaldiroqning ovozidek shovqin qilib yuboradilar. Ya’ni kichkina, kuchsiz odamlar ham bir bo‘lib yig‘ilsalar, yengib bo‘lmaydigan kuchga aylanishlari ifodalanmoqda.

67. Qo‘shningni kambag‘alligi o‘rdak mazasidek bo‘lar

Qo‘shni xonadonning kambag‘alligi, o‘rdak go‘shridek yoqimli hisni uyg‘otadi. Bir odamning baxtsizligi boshqa odamga undan ustunlik hisini beradi.

Yuqoridagi maqollarda “o‘rdakning mazasi” yaxshi, ijobiy narsa (61, 62, 63, 64, 67) ning misoli sifatida berilib, yoqimli his-tuyg‘uni ifodalashda qo‘llanilmoqda. Hamda, o‘rdak kichkina, kuchsiz (66), yovvoyi o‘rdak xonaki o‘rak bilan solishtirilib, mag‘ur, g‘ururi baland odamlarga ham qiyoslanmoqda. Bu yerda ham o‘rdak turli xil ma’no anglatadigan qush turi sifatida gavdalanmoqda.

G‘oz bilan bog‘liq maqollar

68. G‘oz qaytib kelsa, qaldirg‘och uchib ketar

Biror joyni tark etadigan kimsa bo‘lganidek, keladigan kimsa ham bor bo‘ladi.

69. G‘oz kelsa baqlajon ham g‘oz mazasidek bo‘lar

G‘oz keladigan fasl kelganida, baqlajonning maza ham shirin bo‘ladi.

70. G‘oz uchsa toshbaqaga ham alam qilar

G‘oz uchib ketayotganini toshbaqa ko‘rib, uchaman deb tipirchilasa ham, ucha olmasligidan alami chiqibdi. O‘z imkoniyatlarini unutib, boshqalarni qilg‘ini qilish holati qiyoslanmoqda.

71. G‘oz yoki kabutar ekanligini yeb ko‘rgan odam bilar

Nimani go‘shni ekanligini yeb ko‘rmasdan bilib bo‘lmaydi. Boshidan o‘tkazib ko‘rmasa, hamma narsani asl mohiyatini tushunib bo‘lmaydi.

72. Osmondagi g‘ozni sho‘rva qilishar

Uchayotgan g‘ozni sho‘rvani masallig‘iga aylantiradilar. Noaniq narsaga umid bog‘lashga qiyoslanmoqda.

73.Uchayotgan g‘oz qatorni buzmas, qari tulki qo‘rg‘onni ortda qoldirmas

Osmonda uchayotgan g‘oz qatorni buzmaydi, qarigan tulki esa o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyni tashlab ketmaydi. Hatto qushlar ham hurmat va muruvvatni bilishlari ifodalanmoqda.

74.G‘ozlarda kekxa va yoshlarning qatori bor

G‘ozlar to‘da bo‘lib uchsada, kekxa va yosh g‘ozlar ketma-ketlikni saqlashlaydilar. Hatto qushlar ham hurmat, muruvvatni yodidan chiqarmasliklari ma‘lum bo‘lganidek, odamlar ham kekxalarni hurmat qilishlari kerak.

75. Oldindagi g‘ozdan ko‘ra ko‘zingni oldidagi chumchuq yaxshi

(qo‘lga kiritish qiyin bo‘lgan yaxshi narsa g‘ozga, unchalik yaxshi bo‘lmasada, hech bo‘lmasa foydasi tegadigan narsani chumchuqqa qiyoslamoda) Foydasiz yaxshi narsadan ko‘ra, ozmi ko‘pmi yomon bo‘lsa-da, hozirni o‘zida qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan oddiy narsa yaxshiroq.

Yuqorida keltirib o‘tgan maqollarimizda g‘ozning ijobiy qush sifatida qo‘llanilayotganini kuzatamiz. Mazkur maqollarda g‘oz ham yapon xalqida qarg‘a, kabutar kabi hurmat va muruvvatni anglashi (73, 74) ifodalanmoqda. Shu bilan birga, anyi paytda g‘oz kuz elchisi sifatida ham gavdalanmoqda (68, 69). Bundan tashqari “**Oldindagi g‘ozdan ko‘ra ko‘zingni oldidagi chumchuq yaxshi**” degan maqolda g‘oz chumchuq bilan zidlantirilib, qimmatga ega bo‘lgan narsaga ham qiyoslanayotganini kuzatamiz.

Chumchuq bilan bog‘liq maqollar

76.Qimmatbaho tosh bilan chumchuqni urib tushirmoq

Qadrli narsani bemaza, arzimagan ishga ishlatib, katta zarar evaziga olingan kam foyda qiyoslanmoqda.

77.Chumchuqni qo‘rqitib, turnani qo‘ldan chiqaradi

Chumchuqni tutaman deb, turnani qochirib yuboradilar. Arzimagan narsaga oshiqcha e‘tibor berib, hamma narsani puchga chiqarish holatiga qiyoslanmoqda.

78.Chumchuqning oyog‘idan qonni siqib olgandek

Chumchuqning oyog‘idan qonni siqib olgandek, kuchsiz odamdan zo‘rlik bilan pul undrib olish ifodalanmoqda.

79.Chumchuqning mingta ovozi turnaning bir ovozidir

Ko‘pgina chumchuqlar birdaniga sayrasalar bitta turna sayragandagidek ovoz chiqadi. Arzimagan odamni mingta gapidan ko‘ra, yetuk odamning bitta gapi azizroq degan ma’no ifodalanmoqda.

80.Chumchuqni iniga lochin yaqinlashganiga tengdir

Kuchsiz odam xavfdan qo‘rqib titrash holati qiyoslanmoqda.

81.Chumchuqning shoxi

Chumchuqning boshida o‘sgan shox. Chumchuq kabi kuchsiz odam, shoxga o‘xshash qurolga ega bo‘lsa, hech nimadan qo‘rqmaydi degan ma’no ifodalanmoqda.

82.Chumchuqning ko‘z yoshi

Chumchuqni ko‘z yoshidek kichik narsaning qiyosi.

83. Mingta chumchuq o‘ng mingta kabutar burgut bilan dushman bo‘lar

Ko‘pgina chumchuq va kabutarlar birgalikda burgutga qarshi chiqa oladilar. Kuchsiz jonzotga qanchalik ko‘p bo‘lmasin, baribir kuchli bo‘la olmaydilar. Ko‘pgina kuchsiz odamga yig‘ilib olsa ham foydalari tegmasligi qiyoslanmoqda.

84. Urushqoq chumchuq odamni qo‘rqita olmas

Chumchuqqa o‘xshagan kuchsiz, qo‘rqoq qushlar bir-biri bilan urushib ketganda, ularni oldiga odam yaqinlashsa ham uchib ketmaydilar. Biror narsaga berilib ketgan odam o‘zi bilmagan holda o‘zining kuchli taraflarini namoyon qilish holati qiyoslanmoqda

Yuqoridagi maqollarda chumchuq asosan arzimagan narsa, ish (76, 79), kuchsiz jonzot, odam (78, 80, 81, 83), hamda mayda, kichkina narsa (77) larni majoziy tarzda ifodalamoqda. Bundan tashqari, chumchuq oddiy, past tabaqadagi odamga ham qiyoslanayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Turna bilan bog'liq maqollar

85. Turna axtalga qo'nibdi

Iflos joyda, juda chiroyli, ko'rkam odam paydo bo'lish holati qiyoslanmoqda. Axlal yig'ilib qolgan joyga qo'ngan turna kir joyga borib qolgan yetuk insonga qiyoslanmoqda.

86. Turnaning chuqur botqoqdagi ovozi ko'kka eshitar

Turna chuqur botqoqda sayrasa ham, uning ovozi ko'kka yetganidek, yuksak, donishmand odamni berkitib qo'yishlar ham, u odamlar orasida tanilishi qiyoslanmoqda.

87. Turnaning bir ovozi

Kuchli, qudratli odamning bir gapi. Ko'pgina odamlarni boshqara oladigan qudratli odamning qisqa gapi.

88. Turna ming yil, toshbaqa esa o'n ming yil

Turna bilan toshbaqa, ming, o'n ming yil hayot kechiradi. Xitoy afsonasi asosida kelib chiqqan maqol. Uzoq umrning qiyosi.

89. Laylakning bir cho'qishi, turnaning bir qanot qoqishidir

Laylakning bir cho'qishi bilan turnaning bir qanot qoqishi birgalikda kuchli narsa bo'lib, kuchli odamning kuchiga qiyoslanmoqda.

90. Sayrayotgan turna soyada bo'lsa, uni bolasi unga ergashar

Nim qora joyda yangi turna sayrasa, bolasi ham unga ergashib sayraydi. Ona turnaning farzandiga bo'lgan muhabbatining tabiatda namoyon bo'lishi ifodalanmoqda. Hamda, yaxshi odamni berkitib qo'ysalar ham dunyoga tanilishi qiyoslanmoqda.

91. Yongan dalaning qirg'ovuli, tunning turnasi

Qirg'ovulning ini bor dalani yondirib tashlasalar, u o'zini o'ylamasdan bolasini qutqarish uchun iniga qaytib, inini berkitadi. Turna esa shudring tushgan sovuq tunda, o'zini qanotlari bilan bolasini berkitadi. Mana shunday qushlarga o'xshab ona bolasi haqida qayg'urishni to'xtatmasligi qiyoslanib, ifodalanmoqda.

92. Bulutlar orasidagi turna

Oddiy odamdami ancha yetuk odamning qiyosi. Aristokrat, qudratli insonlar nazarda tutilmoqda.

93. Tovuq to‘dasidagi bitta turna (yovvoyi turna tovuq to‘dasida bor)

(tovuq to‘dasini ichida bittagina turnaga aralashib qolgan degan ma‘nodan) Oddiy odamlar orasida bitta yuksak odam aralashib qolganligi ifodalanmoqda.

Yuqoridagilar turnaning xususiyatidan kelib chiqib, kengaygan ma‘nolarni ifodalovchi maqollar bo‘lib, u yerda turna kuchga ega, qudratli (87), muruvvatli (90), aristokrat, yuqori tabaqali (92) insonga qiyoslanmoqda. Majoziy ma‘noda yetuk insonga (85, 89, 93) hamda o‘z farzandi haqida qayg‘uradigan onaga qiyoslanib, uzoq umr ramzi sifatida ham gavdalanib keluvchi turna yapon maqollarida shohona qush ramzi bo‘lib namoyon bo‘lmoqda

2.2 O‘zbek pretdsident matnlarida qushlar timsoli tahlili

O‘zbek tilida ham yapon tilidagidek qush timsollar ishtirokidagi maqollar juda ko‘p uchraydi. O‘zbek tilida maqollar tahlilini Shotursun Shomaqsudov hamda Shuhrat Shorahmedovning “Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”dagi mavjud izohlarga asoslangan holda amalga oshiramiz.

Qarg‘a bilan bog‘liq maqollar

94. Podshong qarg‘a bo‘lsa, yeganing go‘ng bo‘lar.

Davlatni yoki jamoaning ahvoli, holati va uning qanday bo‘lishi uni boshqarayotgan hukmdor, sardorga bog‘liq bo‘lib, oddiy xalq unga bo‘ysunadi. Agar xalqni go‘ng yeydigan qarg‘aga o‘xshagan yoqimsiz, iflos, past odamlar boshqaradigan bo‘lsa undagi odamlarning ahvoli ham yomon holatda bo‘ladi degan ma‘no ifodalanmoqda.

95. Qarg‘ani boqqan bilan qush bo‘lmas

Odam kim bo‘lib, qanday oilada tug‘ilgan bo‘lsa baribir asliga tortadi, ya‘ni uni ming tarbiya qilganing bilan nasl-nasabiga tortadi deb aytilmoqda.

Qargʻadek past tabaqa odamni qancha tarbiyalab, oʻqitsang ham baribir qush kabi magʻrur, yuksak odam boʻla olmaydi degan maʼno ifodalanmoqda.

96. Eshak maqtanib, tulpor boʻlmas, qargʻa maqtanib, shunqor boʻlmas.

Ming maqtangan bilan odamlar uni aslida kim ekani juda yaxshi biladilar. Maqtangani bilan qobilyati darajasidan osha olmaydi. Shu kabi oddiy eshak yoki odamlar tomonidan suyulamaydigan qargʻa ham, yuksak, kuchli tulpor va shunqordek boʻla olmaydilar deb taʼkidlanmoqda.

97. Qargʻa qafasda boqmaydilar

Baʼzi qushlarning sayrashi va chiroyli koʻrinishi kishiga rohat baxsh etadi. Shuning uchun kishilar bunday qushlarni qafasga solib boqadilar va ulardan bahra oladilar. Qargʻa, boyoʻgʻli singari noxush sayraydigan va koʻzga xunuk koʻrinadigan qushlarni shuning uchun ham koʻrgan yerlarida quvib haydaydilar. Bu – maqolning toʻgʻri maʼnosi. Majozan: “Kishilar beʼmani, bemaza, badfeʼl, ogʻzi koski, soʻzi va turqi sovuq odamni xushlamaydilar, oʻz xonadonlariga, davralariga yaqin yoʻlatmaydilar, undan oʻzlarini olib qochishga harakat qiladilar”, degan maʼnoda qoʻllaydilar.

98. Kaptar boʻlib tugʻilsang, qargʻa boʻlib oʻlma.

Odam tugʻilganida ozod, pokiza, begunoh boʻlib tugʻiladi. Biroq hayoti davomida qanday ishlar qilishi, uning qanday odam boʻlib yashab oʻtishi uning amallariga bogʻliqdir. Shu sababli bu maqol gunohsiz, pokiza, ozod boʻlib tugʻilganingdan keyin, gunohkor, nopok odam boʻlib oʻlma degan tanbeh sifatida qoʻllaniladi.

99. Ikki shunqor urishsa, bir qargʻaga yem tushar

(shunqor - ovchilar qoʻlga oʻrgatadigan ov qushi. Uni mard, botir, dovyurak odamlarga tashbih etadilar). Maqolning toʻgʻri maʼnosi shuki, agar ikki shunqor osmonda bir-biri bilan urushib qolsa, ular ogʻzida olib kelayotgan yem yerga tushib ketadi-da, qargʻaga tayyor oʻlja boʻladi. Majozan: “Igʻvogar, muttaham odam oʻz kuchi yetmaydigan ikki odamning ʻrtasiga nifoq solib, urushtirib, oʻzlari bilan oʻzlarini ovora qilib qoʻyadi-da, shundan manfaatlanib qoladi”, deyilmoqchi.

100. Qarg‘a keldi — qish keldi.

Qarg‘a qish elchisi hisoblanadi. Hamda uning uchib kelishi qish kelganidan dalolat berad.

O‘zbek maqollarida qarg‘a asosan salibiy obrazdagi qush sifatida uchraydi. Qarg‘a go‘ng yeb, iflos hayot tarzini olib borganligi sababli maqollarda jirkanch, xunuk insonlarga (94, 95, 97), qarchig‘ay, shunqor hamda kabutar qushlari bilan zidlantirilib past tabaqadagi odamga (96), gunohkor (98), ig‘vogar hamda muttaham (99) odamlarga qiyoslanadi. Bundan tashqari qarg‘a fasllarga oid bo‘lgan maqollarda qish elchisi (100) sifatida ham gavdalanadi.

Lochin bilan bog‘liq maqollar

101. Chidamli er lochin tutar.

Odam chidamli bo‘lsa, hatto tutish qiyin bo‘lgan, kuchli lochinni ham tuta oladi. Shu kabi inson ham sabr-toqatli bo‘lsa, katta yutuqqa, yuksak darajaga erishadi degan ma’no ifodalanmoqda.

O‘zbek tilida lochin bilan bog‘liq maqollar son jihatidan kam bo‘lganligi tufayli, mazkur ishda lochin ifodalayotgan ma’noni faqat bitta maqolga asoslanib tahlil qilamiz. Mazkur maqolda lochin kuch, qudrat ramzi sifatida gavdalanmoqda. Lochinni tuta olish esa majozan katta omadga erishishga qiyoslanayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Burgut bilan bog‘liq maqollar

102. Burgut kuchi — oyog‘ida, odamniki — do‘stlikda.

Bu yerda do‘stlik, birdamlik, hamjihatlik masalasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Azal-azaldan burgut kuch-quvvat, zafar va erk ramzi bo‘lib kelgan. Burgutning oyog‘i ma’lum bir ma’noda butunning bir qismidir. Shuning uchun ham burgutning kuchi uning ikki oyog‘i, ikki qanotida mujassamdir. Inson uchun esa ma’lum bir ma’noda do‘stlik ikki oyoq, ikki qanot vazifasini o‘taydi, unga kuch-quvvat baxshida etadi. Demak, bu yerda burgut va inson

o‘z ma’nosida qo‘llanilib kelmoqda, oyoq va do‘stlik tushunchalari esa butunning ajralmas qismi sifatida, maqolning asosiy mag‘zini ochib bermoqda.

103. Burgut chivin tutmas.

Qushlarning hukmdori bo‘lmish burgut arzimagan chivinni ovlamaydi. Katta, mag‘rur odam kichkina foydaga uchib, past ishlarni o‘ziga ep ko‘rmaydi degan ma’noni anglatmoqda.

104. To‘rg‘ay qutursa, burgutga chopar.

To‘rg‘ay jussasi, kuchi ham burgutdan past qushdir. U quturib ketsa o‘zidan kuchli burgutga tashlanadi. Odam ham manmansirab ketsa, o‘zidan kuchli, mansabi, yoshi baland odamlarni ham mensimay qo‘yadi degan ma’no ifodalanmoqda.

105. Burgut qarisa, yapaloqqush bo‘lar.

Kuchli, mag‘rur, ko‘zlari o‘tkir burgut, qarib kuchdan ketganida ko‘zlari yaxshi ko‘rmaydigan, yaxshi ucholmaydigan, kuchsiz yapaloqqushga aylanib qoladi. Shu kabi inson ham yoshligida ming ko‘rkam, g‘ayratli, kuchli bo‘lsa ham, yoshi o‘tganida kuchdan qoladi degan ma’no ifodalanmoqda.

106. Yo‘rtoq yo‘rg‘aga yo‘ldosh bo‘lmas, burgut qarg‘aga sirdosh bo‘lmas.

Tez yuguradigan yo‘rtoq ot yorg‘aga yo‘ldosh ol‘olmaganidek, burgut ham o‘zidan past qarg‘aga sirdosh bol‘olmaydi. Bu yerda odam darajasiga qarab do‘stlashadi degan ma’no ifodalanmoqda.

O‘zbek tilidagi maqollarda ham burgut qudratli odamga qiyoslanib, kuchga ega bo‘lgan qushlar hukmdori sifatida gavdalanadi. Maqollarda burgut chivin, to‘rg‘ay, yapaloqqush hamda qarg‘a kabi qushlar bilan birga qo‘llanilib, yuksak qudrat egasi ekanligiga urg‘u beriladi.

Tovuq bilan bog‘liq maqollar

107. Xotin-qizning ishini tovuq cho‘qib bitirolmas.

Bu yerda ayol kishi qiladigan ishni ko‘pligi haqida gap borib, uni hatto ovqat ko‘p yeydigan, yeyishdan bo‘shmaydigan tovuq ham cho‘qa olganida yeb tugata olmasedi degan ma’no ifodalanmoqda.

108. Ko‘r tovuqqa har narsa don ko‘rinar.

Ko‘zi ko‘r bo‘lgan tovuq hamma narsani don deb o‘ylab cho‘qiyverganidek, nodon odam ham yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani ajrata olmaydi degan ma’no ifodalanmoqda.

109. Tulkining tushiga tovuq kirar, tovuqning tushiga tariq kirar.

Odatda kishi biror narsani o‘ngida ko‘p ko‘rsa, ko‘p o‘ylasa, shu narsa uning tushiga ham kiradi. Mazkur maqolni: “Har kim o‘z niyati, maqsadiga yetishishi orzusida bo‘ladi, shu haqda o‘ylaydi, qayg‘uradi, shuning g‘amida yuradi”, degan ma’noda qo‘llaydilar.

110. Och tovuq omborga yugurar.

Tovuq qorni ochganida don bor omborga yugurib borganidek, odamlar ham o‘zlariga foyda tegadigan odamni oldiga yoki joyga borib oladilar degan ma’no ifodalanmoqda.

111. Tug‘mas tovuq ko‘p qaqillar.

Tovuq tug‘masa besamara bo‘lib, ko‘p qaqqilaverganidek, qo‘lidan ish kelmaydigan odamlar ham ishlashni o‘rniga ko‘p vaysayveradilar degan ma’no ifodalanmoqda.

112. Oq tovuq somon sochar, o‘z ketini o‘zi ochar

Odatda somon ichiga tuxum tug‘ib, bekitib yurgan tovuq shu somonni o‘zi titkilab, sochib, tuxumini ochib qo‘yadi. Maqolda shu holni misolga keltirish bilan, majoziy ma’noda: “Ayyor, mug‘ombir odam: “Sirimni hech kim bilmasin” deb, uni boshqalardan o‘z ko‘nglida berkitib yurgan bo‘ladi-da, bir kunmas-bir kun og‘zi bo‘shlik qilib, o‘z sirini o‘zi ochib qo‘yadi. Baribir uning “yopiqlik qozoni” yopiqligicha qolib ketmaydi – qilmishi fosh bo‘lib, sharmandasi chiqadi”, deyilmoqchi. “Tuyaqush boshini qumga tiqib, meni hech kim ko‘rmayapti, dermish” degan maqol ham shunga o‘xshash ma’noda qo‘llaniladi.

113. Doniga chidagan tovuq boqar, yemiga chidagan – sigir

“Daromadga qarab-buromad”, ya’ni kiringga qarab chiqim qilish kerak bo’ladi. Ana shu chiqimga chidagan odamgina kiringga ega bo’la oladi.

114. Jo’jali tovuqdan don ortmas

Mazmun: “Bola-chaqasi ko’p odamdan hech narsa ortmaydi, qo’lida ortiqcha mablag’i ham bo’lmaydi. Bunday odamdan bir nima umid qilma ham, so’rama ham. Mabodo so’rab qolsang-u, u bermasa yohud imkoni yo’qligini aytsa, buning uchun xafa bo’lma, gina qilib, o’pkalab yurma”.

115. Tarig’i pishganning tovug’i bo’lgining keladi

Bu maqolni o’zi ishlamay-kuchlamay, o’z yegulik-ichguligini o’zi topmay, o’zgalarning topganidan umid qiluvchi dangasa, tamagir odam tilidan aytganlar va shunday odamlarning o’zlariga nisbatan kinoya va istehzo tarzida qo’llaydilar.

O’zbek tilidagi tovuq asosan salbiy bo’yoqdagi maqollarda qo’llanilishini yuqoridagi maqollarda ko’rishimiz mumkin. Maqollarda tovuqning ko’p tariq yeydigan xususiyatidan ifodalanib (107, 108, 109, 113, 114), shundan kelib chiqqan holda uni o’z nafsini, foydasini o’ylaydigan odamlarga qiyoslashadi(110).

Kabutar bilan bog’liq maqol

116. Kaptar bo’lib tug’ilsang, qarg’a bo’lib o’lma.

Odam tug’ilganida pok, begunoh bo’lib tug’iladi. Biroq hayoti davomida qanday ishlar qilishi, uning qanday odam bo’lib yashab o’tishi uning amallariga bog’liqdir. Shu sababli bu maqol gunohsiz, pokiza, ozod bo’lib tug’ilganingdan keyin, gunohkor, nopok odam bo’lib o’lma degan tanbeh sifatida qo’llaniladi.

O’zbek maqollarida kabutar bilan bog’liq maqollar son jihatidan juda sanoqli bo’lganligi sababli bu yerda ham bitta maqolga asoslanib tahlilni olib boramiz. Yuqoridagi maqolda kabutar qarg’a bilan zidlantirilib ijobiy xarakterga ega qush

sifatida qoʻllanilib, pok, begunoh insonlarning majoziy timsoli sifatida ifodalanmoqda.

Oʻrdak bilan bogʻliq maqollar

117. Oʻrdak oʻrdak bilan uchar, gʻoz gʻoz bilan uchar.

Bu yerda hamma oʻz tengi bilan degan maʼno ifodalnamoqda.

118. Oʻrdak boʻlmay, gʻoz boʻl, bilim olib, soz boʻl.

Mazkur maqolda ilm, kasb-hunar va ilmsizlik masalalari koʻtarilgan. Oddiy oʻrdakdan suvda ham osmonda ham epchilroq boʻlgan gʻoz yaxshi boʻlganidek, inson ham ilm, kasb-hunar oʻrganib turli sohalarda har taraflama ilgʻor boʻlishga harakat qilish kerak degan maʼno ifodalanmoqda

119. Oʻrdak oʻziga oro bersa ham, oqqush boʻlolmas.

Oʻrdakka oʻxshab oddiy, koʻrimsiz boʻlib tugʻilgan odam ming harakat qilsa ham oqqush kabi goʻzal, koʻrkam boʻla olmaydi degan maʼno ifodalanmoqda.

120. Oʻrdak oʻzini gʻoz sanar, chumchuq oʻzini boz sanar.

Oʻrdak gʻoz kabi suvda suzib yuruvchi qush hisoblansa-da, u kabi qanot qoqib uzoq mamlakatlarga uchib keta olmaydi. Gʻoz shu jihati bilan oʻrdakdan ustunroq turadi. Boz ham shu kabi chumchuqdan hajm va kuch jihatidan ancha ustudir. Bu maqol kimdir oʻz qobilyatlari yaxshi anglamay, oʻziga oshiqcha baho berib yuborilgan hollarda qoʻllaniladi.

121. Gʻozga ergashaman deb, oʻrdakning choti ayrilibdi.

Bu maqolda meʼyor va meʼyorsizlik haqida gap ketmoqda. Hamma odam oʻzini qobilyatlaridan kelib chiqqan holda, oʻz imkoniyatlari doirasida biror ishni qilishi kerak. Boshqa oʻzidan yuksakroq odamni qilgani qilib, meʼyorni bilmasa ahvoli voy boʻladi degan fikr ifodalanmoqda.

122. Dunyoni suv bossa, oʻrdakka ne gʻam.

Bu maqol begʻam, beparvo, “oʻz qornim toʻysa boʻldi, oʻzga bilan nima ishim bor” deb, oila gʻamini, el – yurt gʻamini yemaydigan, hamisha-hamroʻz yalloqilib yurishni koʻzlaydigan odamlarga qarata aytilgan.

O‘zbek maqollarda o‘rdakning turli xil xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kengaygan ma’nolarini kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi maqollarda o‘rdak g‘oz hamda ko‘rkam oqqush bilan birga zidlantirilib (117, 118, 119, 120, 121) oddiy, ko‘rimsiz odamga qiyoslanib kelib, yaxshi ucha olish qobilyatiga ega bo‘lmaganligi tufayli majozan epsiz odamlarning timsoli sifatida nomoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga maqollarda uning beg‘am va beparvo (122) tabiatli ekanligi ham ifodalanadi.

G‘oz bilan bog‘liq maqollar

123. Yolg‘iz g‘ozning uni chiqmas, yolg‘iz qizning mungi chiqmas.

Mazkur maqolda jamoatchilik haqida gap ketmoqda. Odam yolg‘iz bo‘lsa u kuchsizdir degan ma’no ifodalanmoqda.

124. G‘oz to‘dasi yo‘lboshchisiz uchmas.

G‘oz to‘dasiz va to‘da yoboshchisiz uchmaganidek, odam ham yolg‘iz hayot kechira olmaydi. Hatto g‘ozlarning to‘dasida sardor bo‘lib u uchib ketayotgan qatorning boshida bo‘ladi va boshqa g‘ozlar bir to‘da, jamoa bo‘lib, jamoani buzmaganda holda harakatlanadilar. Odamlar ham jamiyatda g‘ozlar kabi jamoaviylikni, ketma-ketlikni saqlashi, o‘z sardoriga ega bo‘lishi kerak degan fikr yuritilmoqda.

125. Ko‘lda yurgan qo‘ng‘ir g‘oz, cho‘l qadrini na bilsin.

Mazkur maqolni yaxshi-yomonning farqiga bormaydigan, yaxshi odamlar va yaxshi narsalarning qadr-qimmatini bilmaydigan befarq, befarosat odamlarga nisbatan qo‘llaydilar.

126. Qo‘shning tovug‘i g‘oz ko‘rinar, kelinchagi — qiz.

Begonaning qo‘lida oddiy tovuq ham kamyob g‘ozdek, kelinchagi ham oydek qizidek bo‘lib ko‘ringanidek, yoningdagi qo‘shningni narsasi chiroyliroq, oddiy narsa b‘lsa-da o‘zingnikidan yaxshiroq tuyuladi degan ma’no ifodalanmoqda.

127. Tovuuq bergan g‘oz kutar, tuxum bergan — xo‘roz.

Ochko‘z, ta‘magir kimsa oddiy tovuqni berib o‘rniga noyob g‘oz, tuxumni o‘rniga esa kattaroq xo‘rozni kutadi. Shu kabi ba‘zi odamlar ham kichkina

arzimagan ishni qilib berib yoki foydasi tegmaydigan narsani in'om, evaziga katta narsani talab qiladigan hollarda mazkur maqola kinoya sifatida shunday odamlarga qarata qo'llaniladi.

128. To'zigan g'ozni to'plangan qarg'a olar.

Agar odam o'z do'stlaridan, yaqinlaridan, jamoasidan ajralsa, yomon odamlar to'dasiga tushib qolishi mumkinligi haqida ifodalanmoqda.

129. Maqtanma g'oz, hunaring oz.

Mazkur maqollar majoziy ma'noda vaqtincha erishgan muvaffaqiyatlariga keriluvchi, hovliquvchi odamlarga nisbatan qo'llaniladi.

130. Qarg'a qag'illasa, qishni chaqirar, g'oz g'ag'alasa — yozni.

Qarg'alar uchib kelib, qag'illashni boshlasa qish kelganidan, g'ozlarning sayrashi esa yoz fasli boshlanganidan dalolat beradi. Mazkur maqolda qarg'a qishning, g'oz esa yozning elchisi sifatida gavdalanmoqda.

G'oz yuqoridagi maqollarda turli xil ma'nolarda qo'llanilmoqda. G'ozning to'dasi jamiyatdagi odamlar guruhiga qiyoslanib (123, 124, 128), jamoa bo'lib yashashning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanmoqda. Tovuq bilan birga qo'llanilib, qo'lga kiritish qiyin qush bo'lganligi sabab, g'oz noyob, qimmatbaho narsaning ijobiy qiyosi ekanligi ko'rsatilmoqda. Biroq maqollarda salbiy ma'no ifodalab kelishini ham kuzatamiz. Masalan **“Maqtanma g'oz, hunaring oz”** (129) maqolida uning salbiy sifati ya'ni maqtanchoq tabiatga ega ekanligi ham ifodalangan. Yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan o'zbek maqollarida g'oz qishni ifodalovchi qarg'a bilan birga ifodalanib, yoz elchisi sifatida gavdalanadi.

Chumchuq bilan bog'liq maqollar

131. Qiyg'ir uchsa, chumchuqni tirqishda ko'r.

Qiyg'ir kabi kuchli, o'ljasini tez izlab topadigan qush uchsa, bunday xavfdan qo'rqqan kuchsiz, kichkina chumchuq kabi qushlar tirqishga berkinib olishga harakat qiladilar. Shu kabi insonlar ham o'zidan kuchli insonlar oldida o'zlarini ojiz sezib, hayiqib turadilar degan ma'no ifodalanmoqda.

132. Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin.

“Birovga bir ish qildiradigan bo‘lsang, u ish arzimagan, kichkina ish bo‘lsa ham – ustasiga, qo‘lidan keladigan odamga murojaat qil”, degan ma’noda aytiladigan maqoldir.

133. Chumchuq qutursa, burgutga chopar.

Odam ham manmansirab ketsa, o‘zidan kuchli, mansabi, yoshi baland odamlarni ham mensimay qo‘yadi degan ma’no ifodalanmoqda.

134. Dehqon tariq ‘idan kechsa ham, chumchuqlar o‘zaro kelisholmas.

O‘tmishda mazkur maqollarni janjalkash merosx‘rlarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llaganlar. Ilgari aksariyat hollarda shunday bo‘lganki, davlatmand, mulkdor ota mol-mulkini o‘z hayotlik davrida o‘gil-qizlariga meros tariqasida qoldirib, taqsimlab ketgan bo‘lsa ham, merosxo‘rlar o‘z ulushlariga qanoat qilmay, o‘zaro bitisholmay, bir-birlari bilan chiqisholmay, janjallashib, qozibozlik qilib yurardilar. Yuqoridagi maqollarni o‘g‘ri-qaroqchilarga nisbatan ham qo‘llashgan. Chunki, ular ham talangan, o‘g‘irlangan o‘ljalarni o‘zaro taqsim qilganda bir-birlari bilan janjallashishlar, hatto bir-birlarini o‘ldirar ham edilar.

135. O‘rdak o‘zini g‘oz sanar, chumchuq o‘zini boz sanar.

O‘rdak g‘oz kabi suvda suzib yuruvchi qush hisoblansada, u kabi qanot qoqib uzoq mamlakatlarga uchib keta olmaydi. G‘oz shu jihati bilan o‘rdakdan ustunroq turadi. Boz ham shu kabi chumchuqdan hajm va kuch jihatidan ancha ustundir. Bu maqol kimdir o‘z qobilyatlari yaxshi anglamay, o‘ziga oshiqcha baho berib yuborgan hollarida qo‘llaniladi.

136. Usta ovchi chumchuqqa o‘q otmas

Usta, mahoratli ovchi ovda o‘z kuchini, vaqtini kichkina, arzimagan narsaga sarflamaydi. Shu kabi kuchli, mag‘rur odamlar ham past, kichkina, arzimagan ishni o‘zlariga ep bilmaydilar degan ma’no ifodalanmoqda.

137. Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas.

Dalaga ekilgan tariqni chumchuq yeb ketishidan qo‘rqib, dehqon odamlarga kerak bo‘lgan bu o‘simlikni ekmay qo‘yadi. Kichkina, arzimagan narsaga

oshiqcha e'tibor berib yuborib o'ziga va atrofdagilarga zarar yetkazib qo'yish holatida ifodalnmoqda.

138. Ovchi chumchuq tutibdi

Qo'ldan katta ishlar keladigan odam kichik, arzimaydigan bir ish qilib qo'yib, shuni maqtanib yursa, to'g'ridan-to'g'ri uning o'ziga yohud orqavarotdan mazkur maqolni kinoya tarzida aytadilar.

Yuqoridagi maqollarda chumchuq kichkina, kuchsiz, mayda (131, 133, 136, 138) qush sifatida qo'llanilib kelmoqda. Ayni mana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda chumchuq kichkina, arzimagan narsa, ishga (132, 137, 138) qiyoslanish holatlarini juda ko'p uchratamiz. Bundan tashqari, tez quturib ketadigan tabiatga ega (133) ekanligi sabab, urushishni yaxshi ko'radigan urushqoq odamlarga (134) qiyoslanib keladi.

Turna bilan bog'liq maqollar

139. It achchig'ini turnadan olar, bit achchig'ini — burgadan.

Bu maqolda ov iti nazarda tutilgan. O'rdak, g'oz va boshqa parrandalar bilan ko'tarilishdayoq uchib ketadilar. Turna va laylaklar esa birdaniga ucha olmaydi, oldin o'n besh-yigirma qaram hakkalab borib, keyin uchib ketadi. Maqolning birinchi qismida: "Ov it u qushni tutolmay, bu qushni tutolmay, bekorga ovora bo'lsa, alamini hali uchib ketishga ulgurolmay qolgan turnadan borib oladi", deyilmoqchi. Majozan: "Biror maqsadiga erisha olmay xunob bo'lgan yoxud birovdan dakki yegan, ko'pchilik o'rtasida qizarib, sharmandasi chiqqan ba'zi odam alamini o'sha odamlarning o'zidan olishga qo'rqadi yo qurbi yetmaydi-da, butunlay bu ishga aloqasi bo'lmagan, begunoh (o'z kuchi yetadigan, o'zidan ojiz) odamdan yoinki uyiga kelib, xotin, bola-chaqasidan oladi", degan ma'noda shunday odamga nisbatan qo'llaniladi.

140. Turnadan qorovul qo'ysang, tepangdan qiyqiruv ketmas.

Turna juda ko'p va baland ovozda sayraydigan katta qush hisoblanadi. Agar uni dalaga qo'riqchi qilib qo'ysalar sayrayverib tinchlik bermaydi. Shu kabi

ko'p gapiradigan odamga ish buyursang yoki yumush topshirsang gapiraverib-gapiraverib joningga tegib ketadi degan ma'no ifodalanmoqda.

141. Tul xotinning boshiga turna tezaklar.

Turnaning tezaki bu maqolda g'iybatchi odamlarning g'iybatiga qiyoslanmoqda. Turmushga chiqqan ayol qayerga borsa ham hech kim hech nima demaydi, biroq tul xotin biror joyga borib kelsa, yoki bo'lmasa o'zi yolg'iz biror ish qilsa odamlarni gapiga qolib ketadi degan ma'no ifodalanmoqda.

142. Qarg'a ketmay, qor ketmas, turna kelmay, muz ketmas.

Qarg'a qish tugamaguncha ketmaydi. Ya'ni kunlar isib bahor kelgandek bo'lsa ham agar qarg'a ketmagan bo'lsa baribir hali qor yog'adi, sovuq kunlar bor degan ma'no ifodalanmoqda. Turna esa bahor elchisi bo'lib, u kelmaguncha muz ham erimaydi, ya'ni haqiqiy bahor boshlanmaydi deb ta'kidlanmoqda.

O'zbek tilidagi maqollarda turna baland ovozda sayraydigan qush bo'lganligi tufayli sergap, shovqinsuron (140) odamlarga qiyoslanadi. Fasllarga oid maqollarda esa qarg'a bilan zidlantirilib, bahor elchisi (142) sifatida ifodalanadi.

2.3 Yapon va o'zbek pretsedent matnlarida qushlar timsolining farqli va o'xshash jihatlari

Ma'lumki har bir xalq, xususan o'zbek va yapon xalq maqollarida tarixiy qimmat kasb etuvchi lug'aviy birliklar qatorida, qushlarning ramziy ifodalanishi ham mamlakat tarixi, uning madaniy va ma'naviy hayotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qushlar timsoli aks etgan mazkur ikki xalqning maqollari turfa xil bo'lib, albatta, ular bir qator o'xshash va farqli jihatlarga egadir. Shu sababli ishning navbatdagi qismida aynan shu aspektga e'tibor qaratish lozim deb topildi. Insonlarning xilma-xil xatti-harakatlari, xulq-atvorlari ma'lum bir ma'noda qushlar timsolida o'z aksini topadi.

Ushbu qismda 2 bobning 2.1 va 2.2 qismidagi yapon va o‘zbek tilidagi maqollar oraqali “qarg‘a”, “lochin”, “burgut”, “qo‘ton”, “kalxat”, “tovuq”, “kabutar”, “o‘rdak”, “g‘oz”, “chumchuq”, “turna” kabi qush timsollarining ma‘noviy kengayishi hamda ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini ketma-ketlik bilan tahlil qilamiz.

Yapon tili hamda o‘zbek tilidagi maqollarda majoziy ma‘noda eng ko‘p qo‘llaniladigan qush qarg‘a hisoblanadi. Qarg‘a yapon maqollarida salbiy bo‘yoqda uquvsiz, xunuk, omadsiz, unutuluvchan odam, ijobiy bo‘yoqda esa muruvvatli farzand kabi ma‘nolarida keladi. O‘zbek tilida qarg‘a jirkanch, xunuk, past tabaqadagi inson, gunohkor, ig‘vogar, muttaham odam, qish elchisi kabi ma‘nolarni anglatadi. Har ikkala tilda qarg‘a salbiy qush sifatida gavdalansada, o‘zbek tilidagi qarg‘a kuchli salbiy bo‘yoqda kelgan bo‘lib, yapon tilidagi qarg‘aga qaraganda ma‘no jihatidan keng qo‘llanilmoqda. Hamda uning qish elchisi ma‘nosida ishlatilinishi yapon tilida uchramaydi. Ayni paytda yapon tilidagi qarg‘aning ijobiy ma‘nosi, ya‘ni majozan muruvvatli farzand ekanligi o‘zbek tili orasidagi yana bir farqni ifodalaydi.

Lochin bilan bog‘liq maqollar yapon tilida son jihatidan o‘zbek tiliga solishtirganda ancha ko‘p miqdorni tashkil etadi. Aksincha o‘zbek tilida esa bunday maqollar soni juda kam. Yapon tilidagi maqollarda lochin shuhratparast inson, kuch, g‘urur egasi, aqlli inson ma‘nolarni ifodalab keladi. O‘zbek tilidagi maqollarda ham kuch, qudrat ma‘nolarida qo‘llanilib kelishi, har ikkala tilda ham lochin timsoli o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi.

Qo‘ton yapon maqollarida ko‘p hollarda salbiy xarakterga ega bo‘lgan qarg‘a bilan zidlantirilib birgalikda qo‘llaniladigan qush hisoblanib, asosan ozoda, pok inson, to‘g‘ri ish, ko‘zga tashlanmaydigan narsa ma‘nolarida kelib, ijobiy qush timsoli sifatida gavdalanadi. O‘zbek tilidagi maqollarda esa mazkur qush timsoli deyarli uchramaydi. Chunki qo‘ton O‘zbekiston hududida kamdan-kam uchraydigan qush bo‘lib, odamlar ongida u bilan bog‘liq tasavvurlar chuqur shakllanmagan. Shu sababli o‘zbek maqollarida gavdalanuvchi qo‘ton timsolini yapon tilining

maqollarida uchraydigan mazkur qush timsoli bilan qiyosiy tahlil qilish murakkabroq.

Yapon tilidagi maqollarda ko'p qo'llaniladigan qushlar qatoriga burgutni ham kirgizishimiz mumkin. Burgut timsoli yapon tilidagi maqollarda lochin anglatayotgan ma'nolarni anglatib, kuch, qudrat ma'nolarida keladi. O'zbek tilida ham burgut yapon tilidagi burgut ifodalayotgan aynan bir xil ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan. Shundan kelib chiqqan holda, yapon va o'zbek tillaridagi maqollarda gavdalanuvchi lochin hamda burgut bir xil ma'nolarni ifodalab kelib, kuch, qudratning majoziy timsoli sifatida qo'llaniladi deya olishimiz mumkin.

Kalxat yapon tilidagi maqollarda eng ko'p uchraydigan qushlar sirasiga kiradi. Biroq o'zbek tilidagi maqollarda qo'ton kabi kalxat timsoli ham deyarli uchramaydi. Buni O'zbekiston hududida bunday qushlar ko'p uchramasligi, shu sababli o'zbek mental olamida kalxat bilan bog'liq chuqur tasavvurlar mavjud emasligi bilan tushuntirishimiz mumkin. Yapon tilidagi maqollarda majozan past tabaqaga tegishli, bechora, oddiy odam ka'bi ma'nolarini ifodalovchi kalxat qushi asosan salbiy qush timsoli sifatida gavdalanadi.

Har ikkala tilning maqollarida ko'p qo'llanilgan qushlardan biri tovuq hisoblanadi. Yapon tilining maqollarida tovuq majozan oddiy, kuchsiz odam hamda kichkina, arzimagan, kunalik hayotda ko'p uchraydigan maishiy narsalar kabi ma'nolarida keladi. O'zbek tilidagi maqollarda esa tovuq o'z nafsini, foydasini o'ylaydigan odam ma'nolarini ifodalab keladi. Shundan ko'rinadiki, yapon maqollarida tovuq neytral ma'noda, o'zbek tilidagi maqollarda esa salbiy ma'noda qo'llaniladi.

Ikki xalq madaniyatida tinchlik ramzini ifodalovchi kabutar yapon maqollarida chumchuq kabi kichkina arzimagan narsa, nafsga berilib o'z vazifalarini unutgan odam, muruvvatli farzand, yumshoq, bosiq tabiatli odam kabi ham salbiy ham ijobiy ma'nolarida keladi. O'zbek tilidagi maqollarda esa kabutar faqat ijobiy timsol sifatida gavdalanib, pok, begunoh inson ma'nosida keladi.

Yapon tilidagi maqollarda o‘rdak turli ma’nolarda qo‘llanilib, chumchuq, kabutar kabi kichkina, kuchsiz, g‘ururi baland, mag‘rur odam ma’nosida, uning ya’ni “o‘rdakning mazasi” esa yoqimli xis-tuyg‘u ma’nosida keladi. O‘zbek maqollarida esa o‘rdak oddiy, ko‘rimsiz, epsiz, beg‘am va beparvo odam ma’nosida keladi. O‘rdak har ikkala tilda salbiy bo‘yoqdagi qush timsoli sifatida gavdalanib kelmoqda.

Yapon tilidagi maqollarda g‘oz hurmat va muruvvatni anglaydigan inson, kuz elchisi, qimmatga ega bo‘lgan narsa kabi ijobiy ma’nolarda keladi. O‘zbek tilidagi maqollarda esa noyob, qimmatbaho narsa, maqtanchoq odam hamda yoz elchisi ma’nolarinida kelmoqda. G‘oz majozan qimmatga ega bo‘lgan narsaning ifodasi, turli xil bo‘lsada fasllar elchisi ekanligini, har ikkala tilda uchratishimiz ularning o‘xshash tarafdin. Aksincha, o‘zbek tilidagi maqollarda uning salbiy ma’nosi ya’ni maqtanchoqligini ifodalanishi esa ikkala tildagi g‘ozning farqli tarafdin.

Chumchuq yapon xalqining maqollarida asosan arzimagan, kichkina mayda narsa yoki ish, hamda kuchsiz, oddiy past tabaqadagi inson ma’nolarida keladi. O‘zbek maqollarida ham chumchuq xuddi ana shunday ma’nolarda kelishi bilan bir qatorda, majozan urushqoq odam ma’nosida ham gavdalanadi. Bu ma’noning faqat o‘zbek tilidagi maqollarda ifodalanishi, har ikkala tildagi chumchuq timsoli anglatayotgan ma’noning farqli tarafdin. Umuman olganda yapon va o‘zbek tilidagi maqollarda chumchuq ifodalagan ma’nolar deyarli bir xil.

Yapon xalqi madaniyatida yuksak darajada ardoqlanadigan turna yapon maqollarida ijobiy ma’nolarda gavdalanuvchi qush timsoli hisoblanadi. Yapon maqollarida turna aqlli, qudratga ega, yuqori tabaqali inson, ijobiy, yetuk inson ma’nolarida keladi. O‘zbek maqollarida qo‘llaniladigan turna timsoli esa aksincha ko‘proq salbiy ma’noda uchraydi. Xalqimiz maqollarida mazkur qush sergap, shovqinsuron odam hamda bahor elchisi kabi ma’nolarda kelishini kuzatishimiz mumkin.

Yuqoridagi natijalarga qarasaq, ikki xalqning qush turlari bilan bog‘liq maqollarda metafora ko‘p qo‘llanilib kelganligiga amin bo‘lamiz. Har bir qush turining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, muayyan bir majoziy ma‘noda qo‘llanilmoqda.

Yapon va o‘zbek tillaridagi maqollarda ifodalanayotgan qush turlari anglatayotgan ma‘nolarning o‘xshash va farqli taraflari

Yapon tilining maqollaridagi ma‘no	O‘zbek tilining maqollaridagi ma‘no
Qarg‘a	
uquvsiz	Jirkanch
xunuk	Unuk
omadsiz	past tabaqaga mansub
unutuvchan	Gunohkor
yaxshilikni unutmaydi	ig‘vogar
muruvvatli farzand	qish elchisi
Lochin	
shuhratparast	Qudratli
kuchli	Kuchli
aqli	
qo‘pol	
g‘ururli	
Qo‘ton	
pok	mavjud emas
to‘g‘ri inson	
Burgut	
qudratli	Qudratli
kuchli	Kuchli
Kalxat	
past tabaqaga mansub	mavjud emas
o‘g‘ri	
oddiy inson	
Tovuq	
oddiy	nafsi kuchli
arzimagan odam, narsa	o‘z foydasini o‘ylaydi
kuchsiz	
Kabutar	
arzimagan odam, narsa	Begunoh
nafsga berilib, o‘z vazifasini unutgan	Pok
bosiq, yumshoq	
yaxshilikni unutmaydi	
muruvvatli farzand	
O‘rdak	
kuchsiz	Oddiy
g‘ururi baland	ko‘rimsiz

yoqimli xis-tuyg'u	beg'am
	Beparvo
G'oz	
hurmat va murruvatni anglaydi	Noyob
kuz elchisi	Qimmatbaho
	Maqtanchoq
	yoq elchis
Chumchuq	
arzimagan narsa	arzimagan narsa
kuchsiz	Kuchsiz
qo'rqoq	tez quturadigan
oddiy odam	Urushqoq
Kabutar	
aqli	shoqinsuron, sergap
qudratga ega	bahorning elchisi
uzoq umr ramzi	
yetuk inson	
onalik mehri baling	

Xulosa

Bugungi kunda o'zbek va yapon til leksikasida kam o'rganilgan leksik qatlamlardan biri, xususan, pretsedent matn tilida saqlanib kelayotgan turli xil qushlarning timsol sifatida ifodalanishini ikki til aspektida lisoniy tadqiq etish fan uchun ahamiyatli hisoblanadi. Negaki mental olamda tasavvurlar tizimi, mental voqelik boy va chegarasizdir. Ushbu bitiruv malakaviy ishi doirasida qo'yilgan vazifalar, avvalambor tilshunoslik sohasida nisbatan yangi yo'nalish bo'lmish lingvomadaniyatshunoslikni o'z ichiga qamrab oladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, maqollarda qushlarning ramziy ifodalanishi, turli xil ma'no xususiyatlarini kasb etishi insoniyatning dunyoqarashi bilan bevosita aloqadadir. Timsol tilshunoslik sohasida keng qamrovli tushuncha bo'lib, u pretsedent matnlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan timsol – ramz orqali qushlar anglatib

kelgan majoziy ma'nolar shakllanadi. Insoniyat uzoq davrlardan beri tabiat, ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liqlikda yashab kelmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi hisoblanmish – din kishilarning qushlar bilan bog'liq tasavvurlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bo'lgan. Har ikki xalqda qushlar haqidagi mavjud umumiy tasavvurlar ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan. Qushlar ucha olish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, inson ruhini bir dunyodan ikkinchi dunyoga olib o'tuvchi ilohiy vositachi vazifasini o'tagan. Shu bilan birga madaniy hayot ham ushbu tasavvurlarning yanada boyishiga zamin yaratib bergan. Birgina yapon va o'zbek xalq og'zaki ijodidagi pretsedent matnlar, ya'ni maqollar hamda ularda qushlar timsolining turli xil ma'nolarda ifodalanishi yuqoridagi fikrlarimizni amalda asoslaydi.

Har bir xalq o'zining asrlar davomida shakllanib kelgan dunyoqarashi, ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan holda muayyan bir qushga nisbatan shakllangan o'zaro farqlanuvchi tasavvurlarga ega. Ushbu tasavvurlarning xilma-xilligi o'z o'rnida qushlarning turlariga qarab ortib, kengayib boraveradi. Shu sababli mazkur ishning obyektini bo'lmish maqollarda son jihatidan ko'p qo'llaniladigan o'n bir turdagi qushlar turlicha talqin etilgan. Jumladan, yapon va o'zbek pretsedent matnlarida ifodalanuvchi qarg'a, qo'ton, kalxat, burgut, lochin, turna, tovuq, kabutar, g'oz, o'rdak, chumchuq kabi qushlar ifodalab kelgan ma'nolari tahlil natijalariga asoslanib quyidagi guruhlarga ajratildi:

Yapon tilida:

- I. ijobiy bo'yoqqa ega qushlar → burgut, lochin, qo'ton, g'oz, turna
- II. salbiy bo'yoqqa ega qushlar → qarg'a, kalxat, chumchuq
- III. bir vaqtning o'zida ijobiy\salbiy bo'yoqqa ega qushlar → tovuq, kabutar, o'rdak

O'zbek tilida:

- I. ijobiy bo'yoqqa ega qushlar → burgut, lochin, kabutar
- II. salbiy bo'yoqqa ega qushlar → qarg'a, tovuq, chumchuq

- III. bir vaqtning o'zida ijobiy\salbiy bo'yoqqa ega qushlar→ o'rdak, g'oz
- IV. ma'lum bir timsol – ramzni ifodalagan qushlar→ kalxat, qo'ton.

Ko'rinib turganidek, har ikki xalq maqollarida lochin hamda burgut qushlari ijobiy bo'yoqda, qarg'a va chumchuq esa salbiy bo'yoqda, tovuq va o'rdak bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy bo'yoqda gavdalanishi ularning o'xshash taraflarini belgilaydi.

Yapon maqollarida ijobiy bo'yoqda gavdalanuvchi turna, o'zbek tilida salbiy bo'yoqdagi qush timsolida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga yapon pretsedent matnlarida ijobiy bo'yoqqa ega qo'ton, salbiy bo'yoqqa ega kalxat qushlari o'zbek maqollarida ma'lum bir timsolni ifodalab kelmaydi. Buning sababi mazkur turdagi qushlarning mamlakat tabiatida kamdan-kam hollarda uchrashi, kishilar ongida ular bilan bog'liq tassavurlarning shakllanishiga to'siq berganligida namoyon bo'ladi. Shu qatorida yapon maqollarida ishtirok etgan g'oz, o'zbek maqollarida har ikki holatda, ya'ni ham salbiy, ham ijobiy ma'nolarda qo'llanib kelishi mumkin. Hamda aksincha o'zbek maqollarida ijobiy ma'noda keluvchi kabutar, yapon maqollarida salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib, yapon va o'zbek xalqlari madaniyatining turli xilligi o'z navbatida ularning maqollarida, ularning uzoq davr mobaynida shakllanib kelgan dunyoviy qarashlarida, ularning mental olamida ham o'z ifodasini topganligi haqida umumiy xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida : Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.:O‘zbekiston,1997 yil., –266 bet
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2008 yil., 176be

O‘zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1986, №5. -Б.56-60
2. То‘ра Mirzayev “O‘zbek xalq maqollari”, “Sharq” nashriyoti, 2005
3. Shotursun Shomaqsudov. Shuhrat Shorahmedov “Ma‘nolar maxzani” , “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” 2001

4. Shotursun Shomaqsudov. Shuhrat Shorahmedov “Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati” “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Toshkent - 1990

Ilmiy dissertatsiyalar:

1. Yo‘ldosheva D. O‘zbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida. – Samarqand, 2007

Yapon tilidagi adabiyotlar;

1. 中川雄三『ひと目でわかる野鳥』、成美堂出版、2010年1月。ISBN 978-4415305325 223 ページ
2. ジャン・シュヴァリエ アラン・ゲールブラン「世界シンボル大事典 Dictionnaire des Symboles」株式会社大修館書店、1996年12月15日 216 ページ
3. 望月久貴「実用故事ことわざ辞典」千曲秀版社、昭和53年10月16

Rus tilidagi adabiyotlar:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001г. 77 стр
Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000 г. 225 ст
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М., 1987 г. 218 стр
3. Гудков Д.Б. Прецедентные феномены в текстах политического дискурса / Язык средств массовой информации: Учебное пособие для вузов / Под.ред. М.Н.Володиной. М.: Академический проект, 2008 г. 40 стр
4. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). - Ташкент, 1978.;
5. Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах //«Вопросы башкирского языкознания». – Уфа, 1973
6. В. Радлов. Образцы народной литературы тюркских племен. Часть IX. Санкт-Петербург 1907 г. 346 стр

Lug‘atlar:

1. Словарь иностранных слов. – М.: Наука, 1964 г. 518 стр
2. Николаева Т.М. Текст // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Сов.энциклопедия, 1990 г. 507 стр

3. Internet manbaalar:

1. ru-jp.org/bulanaya.htm А.А.Буланая “Отражение синтоистского культа природы в искусстве:птицы и животные в японской поэзии”
2. <http://feb-web.ru/feb/ivl/v12/v12-1962.htm> Стеблева И.В. Древняя тюркоязычная литература. 200 стр
3. engimono.net/articles/K7Zmg
4. www.symbolarium.ru